



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasи

IV kurs bitiruvchisi Astanov Ozodning

“Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlari”
mavzusidagi

BITIRUV

MALAKA VIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Shirinov A.Q

BUXORO-2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. XIX-XX ASRDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT

1.1.Ahmad Donishning o'z davrdagi siyosiy-ijtimoiy masalalarga munosabati.....	7
1.2.Mutafakkirning Buxoro amirligi davridagi davlat boshqaruvi muammolari tahlili.....	19

II BOB. AHMAD DONISH ASARLARIDA BUXORO AMIRLIGI TARIXI MASALALARI

2.1.Ahmad Donish ilmiy merosi tasnifi.....	30
2.2..Ahmad Donishning asarlarida huquqiy-siyosiy masalalarning yortilganligi...	43
XULOSA.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	58

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va asoslanishi. Bugungi yuzaga kelgan obyektiv voqelik XIX asr o'rtalari XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi vaziyatni yoritib berishda Ahmad Donishning buyuk xizmatlari shundaki, o'z o'tmishdoshlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-huquqiy, xususan falsafiy g'oyalari ishlab chiqdi va yaxlit holda umumlashtirdi. O'rta Osiyo ma'rifatparvarligini yangi bosqichga ko'tardi. O'rta asrdagi musosabatlari Buxoro amirligidagi qoloqlikning asosiy sabablardan biri endilikda bunga yo'l qo'ymaslik buning oldini olishdagi ahamiyatini hayotning o'zi isbotlamoqda. Ahmad Donish yashagan davr iqtisodiy hayotida mulkiy munosabatlar, xususan yer egaligi, uning o'ziga xos xususiyatlariga shariat qonunlari va huquqshunosligi moslashtirilgan edi. Davlat boshqaruvi esa urug'-aymoqchilik munosabatlarga asoslangan edi. Bu esa xalq orasida ziddiyatlarni keltirib chiqargan bo'lib hisoblangan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek "Mahalliychilik va separatizm keltirib chiqaradigan yana bir tahdid shundan iboratki, mahalliychilik va urug'-aymoqchilikka asoslangan ziddiyatlar mintaqamiz sharoitida millatlararo va etnik mojarolarga aylanib ketishi yoki bunday mojarolarni yuzaga keltirishi mumkin. Barcha mintaqalar, barcha etnik va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari o'rtasida muvozanat saqlanishini doimo hisobga olish zarur"¹. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi"². XIX asr Buxorosida hunarmandchilik xo'jalik yuritishning muhim shakllaridan biri bo'lib, u ham dehqonchilik singari faqatgina qo'l mehnatiga asoslangan va aholi tirikchiligining alohida bir yo'nalishi yoki ko'rinishi edi. Buxoro amirligining ijtimoiy hayotida yirik yer egalari va kambag'al dehqonlar jamiyatning asosiy qatlamlari bo'lib,

¹ I.Karimov "XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T.: "O'zbekiston" 1997-y.105-b.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston" 2018-y. 6-b.

dehqonlar amirlik nufuzining 90 foizini tashkil etardi. Mehnatkash dehqonni nafaqat amir, balki yirik yer egasi ham shafqatsizlik bilan ezar edi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat hayotida yangi huquqiy negizni shakllantirish, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda umumiy huquq-tartibotga izchil rioya qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bugun hayotimizning o‘zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama ta’minalash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. Inson manfaatlarini ta’minalash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, uning dardu-tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak”¹.

Ahmad Donish davri ma’rifatparvarligi, xususan Buxorodagi ijtimoiy — siyosiy hayot, uning mehnatkash xalq ruhiyatiga ta’sirini o’rganish, milliy o’zlikni anglashda, tariximizni o’rganishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun shu zamin farzandi bo’lgan Ahmad Donishdek buyuk siyomoning hayot yo’li ibratlidir.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Ahmad Donish ijodi XIX asr Buxoro tarixining ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiy ma’naviy hayotini chuqr tahlil qilish tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ahmad Donish o’z davrining farzandi edi. Uning siyosiy va falsafiy qarashlarida, u yashagan, ijod qilgan va faoliyat, uning siyosat, davlat to’g’risidagi qarashlari u yashagan makon Buxoro amirligi ijtimoiy — iqtisodiy va siyosiy , ichki va tashki siyosati tadqiqot predmetiga kiradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ahmad Donish yashagan davrda Buxoroda toshbosma, nashriyotlar hali yo’q edi. Ushbu ma’lumotlarni bayon qilishdan asosiy maqsad, Ahmad Donish yashagan davr va ijtimoiy — siyosiy muhit manzarasini tasavvur qilishdan iboratdir. O’sha davrdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar

¹ Sh.M.Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”. T.: “O‘zbekiston” -2018 y 116-b.

ishlab chiqish va ushbu sohadagi takliflarni asoslab berishdan iborat. Oldimizga qo'ygan vazifalar quyidagilardan iborat :

- A.Donish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolni aholi turmush tarzini o'rganish
- A.Donish ilmiy merosini o'rganish va tahlil qilish
- A.Donishning inson omili masalalari o'rganish
- A.Donish qarshlarida asosoy o'rinni egallovchi boshqaruv masalalari bilan tanishish

Bitiruv malakaviy ishining yozilish uslubi. Bu tadqiqot ishini yozishda qiyoslash, mantiqiy tahlil qilish, analiz va sintez qilish, tarixiy, metodlaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida bayon qilingan davlat va huquq sohasidagi siyosiy fikr-mulohazalar va g'oyalalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan davlatimiz va xorij olimlari qator ilmiy ishlarni chop etganlar. Jumladan, Rahmon Muiniy "Ahmad Donish hayoti haqida" Raupov.S "Navodir ul-vaqedaadolatli shoh muammosi", S.Ayniy "Esdaliklar" A.Donish "Risolaye muxtasare az ta'rixi sultanati xonadoni Mang'itiya", T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyevning "Ikki tarixiy siymo", A.Razzoqovning "Iqtisodiy tafakkurlar sarchashmasi", A.Donishning "Navodir ul vaqoe" asari monografiya kabi darslik, o'quv qo'llanmalari va ilmiy maqolalar atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, rus tilida ham ko'plab adabiyotlar chop etilgan. Bundan tashqari ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda internetdan olingan ma'lumotlardan va ilmiy maqolalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar fani nazariyasini boyitishga muayyan darajada hissa qo'shadi.

Amaliy ahamiyati. Ahmad Donishning siyosiy qarashlari orqali Buxoro amirligi siyosatidagi kamchilklar xususida bir qator amaliy takliflarlar, mulohazalar ifodalanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi tadqiq qilingan masalalar mohiyatidan kelib chiqib, kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. XIX-XX ASRDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT.

1.1. Ahmad Donishning o'sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy masalalarga munosabati.

Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar yetishib chiqmagan deysiz. Ularning umumbashariy g'oyalari, ilmiy merosi, oradan necha asrlar o'tsa hamki, ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'zidan munosib iz qoldirgan ana shunday ulug' siymolardan biri ulug' olim va davlat arbobi Ahmad Donishdir. Mang'itlar sulolasи hukmronligi davrida (1756–1920 yillar) tumanda hayot avvalgidek bir maromda davom etdi. Bu davrdagi tarixiy hodisalar mahalliy tarixchi olimlar Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy, Mirza Salimbek, Sadr Ziyo, Sadriddin Ayniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida muayyan darajada tasvirlangan.

Ko'pchiligidan uning nomini eshitganmiz albatta. Biroq "Ahmad Kalla", "Ahmad maxdum", "Muhandis" nomlari bilan zamonasida shuhrat qozongan va ilmiy-adabiy tafakkurning yangilanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan allomaning amirlik tuzumini isloh qilish, Rossiya va Yevropa mamlakatlaridan andoza olib, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, turli tabaqa vakillaridan iborat parlament (mashvarat) tuzish, barcha qonun, nizomlarni shu kengashda ishlab chiqib, hayotga tatbiq etish, maktab va madrasa fanlari, o'qitish usullarini tubdan yangilash xususidagi ilg'or qarashlaridan bexabar chiqamiz. U ana shunday hur fikrlari, qomusiy ilmi tufayli Rossiya imperatori Aleksandr II ning ham nazariga tushgan edi.

Ahmad Donish 1827 yili Buxoroda shofirkonlik mudarris oilasida tug'ilgan. Dastlab maktabda, so'ngra otasining madrasasida o'qigan. Ahmad Donish adabiyot, tarix, falsafa, tabobat, astronomiya ilmlarini puxta o'zlashtirgan. Shuningdek, u nomi chiqqan hattot va rassom ham edi.

Ahmad Donish (1827–Buxoro–1897) Buxorodagi ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandası, mashhur tarixchi olim, davlat arbobi, munajjim va musavvir hisoblanadi. U Buxoro shahrida tug'ilgan. Uning otasi Nosir Maxdum

Shofirkon tumanining Sug‘ut (Sug‘d) qishlog‘idan bo‘lib, Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan.

Ahmadning onasi kambag‘al qishloq qizi bo‘lib, o’qishni, yozishni bilgan va hatto she’rlar yozishni mashq qilgan. U o’z uyida, qishloq; qizlariga otinoyilik qilib, ularga saboq bergan. Bu haqda Ahmad Donish: “Maktabga borishimdan oldin, oilamizdagি boshqa bolalar qatori onamdan alifbeni o’rgandim, o’qish va yozishni, o’rgandim. Loyshuvoq devorga qalam bilan geometriya shakllarini solganimni aniq eslayman” — degan mazmundagi fikrlarni keltiradi.

Donishning otasi o’z o’glini Qur’oni Karimning bilimdoni va hofizi bo’lishini istab, u 9 yoshga to’lganda musulmon maktabiga o’qishga beradi. Ahmad bolaligidan tili tutilib gapirganligi uchun Qur’oni Karimni yodlashga qiynalgan, shunday bo’lsada, uch yil ichida bu muqaddas kitobni yod olgan¹.

Ahmad Donish eski maktabni uch yilda tugatib, o’z muallimini fotihasini olgach, oliy maktab, madrasaga o’qishga kiradi. O’sha davrda madrasalarda qancha vaqt o’qish ilm tolibning iqtidoriga bog’liq edi. Zehni o’tkir bo’limgan ayrim talabalar 16-20 yillab Madrasa talabasi bo‘lib qolavergan. Ahmad Donishning madrasadagi tolibi ilmlik davri ancha sermahsul bo’ladi. Ilmga chanqoq talaba madrasadagi diniy islomiy fanlar bilan bir qatorda matematika, geometriya, astronomiya, musiqa, falsafa va tarix ilmlarini mustaqil o’rgandi. Madrasa mudarrislarining unga berayotgan ta’limi uni qoniqtirmas, u Buxoro shahrida yashasa ham ota-onasi bilan o’z hovlisida turmas, otasi ijara olib bergen hujrada tun-u kun kitoblar ustida ishlar edi. XIX asr Buxorosi Sharqning ma’rifatli va muqaddas shahri hisoblanganligi uchun, unda kitob va kitobxonalarga nisbatan ilm ahli va buxoroliklarning rag’bati baland ekanligiga izohning hojati yo’q deb hisoblaymiz. Qomusiy bilimlar sohibi bo‘lishga ishtivoq kuchli bo’lgan Donish, o’tmish va o’z davrining shoirlari, faylasuflari va umuman Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqr o’rgandi. Uni malakali husnixat sohibi bo’lgani uchun, mang’it amirlari saroyiga xizmatga oladilar. Donish tez orada amir

¹ T.E.Rahmonov , M.Z.Orziyevning “Ikki tarixiy siymo”. Buxoro 2015-yil 8-9-b.

saroyining bosh mirzaga aylanadi. Uning mang’it amirlari saroyida katta lavozimda ishlashi, Buxoro amiri bilan, vazir va boshqa oliv martabali amaldorlari bilan tanishish, hukumdar toifasining mavqesi, o’rni, turmush tarzini bilish imkonini beradi. Bu haqda uning o’zi: “Harbiy toifa bilan mening tanishish va muloqotda bo’lishim, husnixat egasi bo’lishim zaminida bo’ldim” tarzidagi fikrlari orqali ifodalangan edi.

Ahmad Donishni alloma deb atasak bo’ladi, uning nomi ulug’lashimiz mumkin. Chunki, Ahmad Donish o’zining ilmiy salohiyati, donoligi, ko’p fanlarni bilishi, xususan, uning falakiyatshunoslikdagi mashhurligi, eng avvalo, uning ajoyib insoniy hislatlar egasi ekanligi, XIX asr Buxoro ilm ahlining , uni o’zlariga ustoz deb tan olishlariga olib kelgan.¹

Ahmad Donish Buxoroda madrasa tahsilini olgach, mang’it amirlaridan Nasrullohxon (1806 – 1860), Muzaffarxon (1819 – 1885), Abdulahadxon (1859 – 1910) davrlarida saroyda turli lavozimlarda ishlagan. Rossiya yuborilgan elchilar tarkibida 3 marta (1857 – 1858, 1869, 1873 – 1874 yillarda) Sankt-Peterburg va Moskvada bo’lgan. Rossiya safari Ahmad Donishning ilmiy faoliyatida muhim o’rin tutib, uning davlat va jamiyat haqidagi qarashlarini tubdan o’zgartirib yuborgan. 1874 yil fevral-mart oylarida Rossiyada chiqadigan “Golos”, “Novoye vremya” gazetalarida uning bilim-saviyasi va siyosatdonligi ta’riflangan fikrlar bosilgan². Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, yurtdoshimiz rus podshosi xizmatidagi yozuvchi va olimlarning e’tiborini tortgan, hurmatiga sazovor bo’lgan.

Ma’naviyatimizning zabardast vakillaridan bo’lgan Ahmad Donishdan bizga ulkan meros qolgan bo’lib, uning qamrovi nihoyatda keng. Sadriddin Ayniy, Evgeniy Bertels, Ibrohim Mo’mnov, Sadri Ziyo, Sotim Ulug’zoda, Ibrohim Haqqul kabi atoqli olim va adiblar mutafakkir hayoti va ijodini tadqiq etishgan.

U Donish taxallusidan tashqari Muhandis, Mir Ahmad, Mirzo Ahmad O’roq taxalluslari bilan ham ijod qilgan. Xalq o’rtasida Ahmad Kalla nomi bilan ko’proq mashhur bo’lgan. Filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqulning “Ahmad Kalla”

¹ A.Abdullaeva, X.Xolmirzaev. Navodir ul-vaqoe o’zbek tilida. /Qomusiy mutafakkir. Buxoro, 2007. – 220b.

² F.Hasanov “Manaviyat yulduzlar” T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” - 2011-yil. 337- b.

nomli essesida shunday satrlar bor: “O’n to’qqizinchi asrdagi Buxoro sharoitida Ahmad Donishdek olim, adib, mutafakkir va davlat arbobining kamol topishi hayratlanarli hol. Ilm-fanning sayozlashuvi, ma’rifat bo’stonlarining qovjirashi, hurriyat nurlarining so’nishi Buxoroning tinka-madorini quritgan edi. Davlat va hokimiyat Buxoroi-sharif ahli xohish-irodasiga zid bo’lgan aqida va orzu-havaslarga tobe edi.

A.Razzoqovning “Iqtisodiy tafakkurlar sharchashmasi” nomli asarida ham Ahmad Donishning iqtisodiy qarashlarini keltirib o’tadi. Asarning Ahmad Donish yashagan davrda mamlakatning iqtisodiy ahvoli deb boshlanuvchi bobida ketirib o’tgan. Unda quyidagilarni aytib o’tgan: “Ma’lumki, XIX asrning oxirlari jahonda yirik o’zgarishlar davri edi, monopoliyalar yuzaga kela boshladi ko’plab yangi industrial davlatlar paydo bo’ldi, yangi sinflar - burjuaziya va ishchilar sinfi tashkil topdi, nisbatan erkin mehnat asosiy o’ringa chiqa boshladi.

Ammo Turkiston o’lkasida va ayniqsa Buxoroda hunarmandchilik hatto manufakturna darajasiga ko’tarilmagan edi, iqtisodiyotda mayda mahsulot ishlab chiqarish yetakchi edi. Qishloq xo’jaligida natural xo’jalik ustun bo’lgan. Yevropa-da esa, XIV—XV asrlarda manufakturna, XVIII asrda fabrika paydo bo’lgan. Sug’orma dehqonchilik yangi yerlar ochish va suv bilan ta’minalashni talab qilgan. Yer yetishmasligi chokarlikka olib kelgan. Buni ko’plab tarix asarlarda ham o’z ifodasini topganligini bilamiz. G’arbda esa, fermerchilik munosabatlari rivoj topdi. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlar ta’siri ostida davlatni boshqarish, xo’jalik yuritishda yangi usullar joriy etishni vaziyat talab qila boshladi.

Mutafakkirlar mamlakatni og’ir ahvoldan olib chiqish, xalq turmushini yaxshilash iqtisodiy munosabatlarda ma’lum qonun-qoidalarnng ustuvorligini taminlash yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish yo’llarini ilgari surdilar. Ayniqsa bozorlardagi ahvol og’ir edi, bu yerda tarozidan urib qolish, turli yig’imlar va boshqa salbiy holatlar rivoj topdi. Bu xalq orasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Rossiya vassali sifatida Buxoroda ham ayrim ijobjiy o’zgarishlar uchun

sharoit vujulga keldi. Ko'pgina mutafakkirlar mamlakatdag'i barcha sohalarni isloh qilish bo'yicha ko'pgina takliflar berishdi, ammo ular e'tiborsiz qoldirildi¹.

Rost so'z, to'g'ri fikrning bir chaqalik qiymati bo'limgan ana shunday qaltis sharoit va badbo'y muhitda Ahmad Donish saroy xizmatida yurgan. Ahmad Donishning hayoti va ijtimoiy faoliyati XIX asrga kelib qoloqlashib qolgan, o'rta asrchilik munosabatlari hanuz davom etayotgan Buxoro amirligining poytaxti bo'lmish Buxoro shahrida kechadi. Alloma ijtimoiy - siyosiy qarashlarining shaklanishida o'z davri mulkiy munosabatlarining ta'siri sezilarli darajada ko'rinadi. Ahmad Donish yashagan davr iqtisodiy hayotida mulkiy munosabatlar, xususan yer egaligi, uning o'ziga xos xususiyatlariga shariat qonunlari va huquqshunosligi moslashtirilgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ishlab chiqarishning ana shu munosabatlari bilan bog'liklik alomatlari seziladi. Ijtimoiy - siyosiy hayotni o'zgartirishning ma'rifatparvarlik va islohotlar o'tkazish yo'li bilan o'nglanib, rivojlanib ketishiga ishonch uchqunlari porlab turar edi. Buning sabablarini tushunish uchun, ijtimoiy - iqtisodiy hayot va davlat siyosatini tahlil qilish lozim.

Amir Muzaffar davlat tepasida mustahkamlanib olgandan keyin vasiyat tarafdori bo'lgnarlarni ildizi bilan quritdi. Merosxo'r deb atalgan shaxs zudlik bilan Buxoroni tark etdi. Qochishga ulgurmagan avlodi, yaqinlari, surriyotlarni amir qatl qildirdi. Otasi davrida mansab egasi bo'lgan barcha a'yonlar, amirlar, vazirlarni haydadi, ularning mol-mulklarini musodara qildi va davlat tepasiga o'z yaqinlari va tarafdarlarini o'tkazdi. Qo'shin va raiyatga zulm qilindi. Ular o'zlarini kutmagan holda nogohdan yuqori mansab va amallarga qo'yilgandan keyin aholi qonini icha boshladilar, qo'pol muomala qilar, uncha-munchani nazar-pisand qilmas edilar. Shu jihatdan Karmana kishilari Buxoro odamlari nazdida shum ko'rinar edi". Xalq bu o'rinda davlatni tinj farovon bo'lishini xoxlar edi. Tazyiqlarga qarshi xalq qo'zg'olonlar qilib tinjlikka erishishga harakat qilishgan.

Tinch-totuv mamlakatda o'zgarishlar o'z maromida davom etadi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek "Tabiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda

¹ A.Razzoqovning "Iqtisodiy tafakkurlar sharchashmasi" Toshkent "O'zbekiston" 2011-yil 224-225 –betlar.

yashayotgan barcha odamlarning oljanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinjligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushinchalarni o'z ichiga oladi”¹.

Ahmad Donish fikrlari Muzaffarxon hukmronligining dastlabki bir ikki-yilida otasidan qolgan davlatga tayangan holda Hisor va Ho'qand tomon lashkar tortib, ba'zi mavzelarni kuch va shafqatsizlik bilan egalladi va aholisiga omonlik bermay, qatlga yetkazdi, ya'ni ahvol ilgaridek xusumat va fasodga qaytdi. Jangu jadalta ikki-uch g'alabadan keyin amirga fir'avn dimog'dorligi yo'l topib, dunyoda o'zidan boshqani tan olmaydigan, shariat ko'rsatmalarini o'z xohishiga qarab o'zgartirar edi. Shu tariqa, otasi davridagi amaldorlarning aksariyatini qatl qildi, mulkclarini musodara etib, yer bilan yakson qildi, qabih kishilar va qullarni xalq boshiga ko'tardi.

Movarounnahrni Rossiya tomonidan istilo qilish boshlanguncha shunday davom etdi. Qo'shinga har taraflama jabr qilishar, sarkardalar himmatsiz, g'ayratsiz, nodon edi. Askarlar qullarga xizmat qilishni or bilib, orqasini o'girib qochishga yuz tutdi, shunday qilib, hamma viloyatlar Rossiya tasarrufiga o'tdi. Sababi shundaki, bir askarga beriladigan maosh to'rt kishiga beriladigan bo'ldi, bir sarkardaga beriladigan tanho ikkitasiga beriladigan bo'ldi.

Buxoro vazirligi Muhammadshoh qo'shbegi qo'lida edi. Bu odam kaltafahm, savodsiz, beaql edi, doim kasal bo'lib, to'g'ri so'zni ham podshoga yetkaza olmasdi, Hech kim davlat foydasiga biron narsa deyishga jur'at qila olmas, shu sababdan millat va davlatning ishlari to'liq inqirozga yuz tutdi, qo'shin va xalq o'rtasida osoyishtalik yo'qoldi. Aslida mamlakat ravnaqi vazirning ziyrakligi, qat'iyatligi, to'g'ri mulohaza yuritishiga bog'liq. Agar vazir bemulohaza bo'lsa, bunday davlatning holiga voy"².

Ahmad Donishning Buxoro hukmdori va uning bosh vaziri haqidagi mulohazalari ustida ko'p mushohada qilaman. Buyuk allomaning yozganlarini qayta-qayta o'qib, bu yerda faqat o'zbek xalqining XIX asrdagi og'ir tarixini emas,

¹ I.Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”. T.: “Ma'naviyat” 2008-yil 72-bet.

² Ahmad Donish "Risola yoxud Mang'itlar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi". Dushanbe, 1992 23-b.

balki uning kelgusi qismatini ham bashorat qilganligini bilib oldim. Darhaqiqat, yurtda podshoh mabodo adolatli bo'lib, vazir zolim bo'lsa ham baraka bo'lmaydi. Johilliklar avjiga chiqadi podshoh boshqa yo'nalishdan boradi vazir boshqa yo'nalishda o'rtada xalq aziyat chekadi.

Shu o'rda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning gaplarini ham misol keltiramiz "Davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati baho berishda qonuniylik ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilayotgani ,ularga davlat xizmatlari ko'rsatishning sifati sifati va ochiqligi biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart"¹.

Adibning asarlarida mamlakatni isloh qilish masalalari keng o'rin egallaydi. «Kimki aqlsiz bo'lsa, u odil ham emas, aql va davlatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, aqlsiz odamlar mamlakatni idora qila olmaydi, deb yozadi. Bu olimning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bo'yicha takliflari amir tomonidan inkor etiladi va u saroydan chetlashtirilishi haqida ma'lumotlar beriladi.

XIX asr o'talarida mustamlakachi ikki yirik imperiya, ya'ni Rossiya va Buyuk Britaniyaning strategik manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Rossiya imperiyasi siyosatdonlari va harbiylari Buyuk Britaniyaning Turkiston o'lkasi va Kaspiy dengizining sharqiy tomonlarini egallab olishidan g'oyat xavfsirayotgan edi. Ana shunday vaziyatda O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi xavfi kuchaydi. Rossiya imperiyasi turli ekspeditsiya va ilmiy guruhlarning qatnashchilari, sayyohlar va olimlar niqobi ostida ko'plab joususlar, ayg'oqchilar, harbiy mutaxasislar va xufiyalarni Turkistonga jo'natgan. Xullas, xonliklarni bosib olish uchun Rossiya imperiyasi katta miqyosda harbiy-siyosiy tayyorgarlik ko'ra boshladi².

Rossiya imperiyasi Turkiston mintaqasini bosib olishdan oldin mukammal rejani ishlab chiqqan. Rejada asosiy zarbani mintaqada eng zaif va hududi jihatdan kichik Qo'qon xonligiga berish, ayni paytda Buxoro amirligi va Xiva xonligini

¹ Sh.M.Mirziyoyev "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi boyicha harakatlar strategiyasi" T.: "Ma'naviyat" 2017-yil 30-b.

² D.Alimova, U.Rashidov. "XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar". Buxoro 2009. - 119 b.

Qo'qon xonligi bilan o'zaro birlashib qo'shin tuzishiga, o'zbek xonliklarining birgalikda harakat qilishiga imkon bermaslik maqsadida ular o'rtasida turli nizolar chiqarish va mavjud ixtiloflarni kuchaytirish yo'llarini ishlab chiqishga qaratdi. Rossiya harbiy ministrligida harbiy harakatlarga ketadigan xarajatlar, qo'shin miqdori va turi, urush harakatlarida qatnashuvchi qismlar, quruqlikva suvda harakat qiluvchi vositalar, qurol-yarog' miqdori va zaxiralari aniqlandi.

Ahmad Donishning quyidagi fikrlari bilan: "Amir Temur dunyoning to'rtdan bir qismida jasorati, mardligi bilan nom qozongan bo'lsa, Buxoro amirlari badaxulqliklari, irodasizliklari, qo'rkoqliklari bilan o'z nomlarini badnom qildilar. Buxoro va Samarqand adolat, insof, dinu diyonat, ilmu amali bilan dunyoga dovrug'i ketgan sharlardandir. Bular ushbu shaharlarni shunchalik badnom qildilarki, buning sharmandaligi qiyomatgacha qoladi, tarix varaqlaridan o'chmaydi. Mang'itlar o'tmishi ham bizning, o'zbek xalqining tarixidir. Tarixdan esa voz kechib bo'lmaydi. Faqat saboq chiqarish mumkin. U shuning uchun ham muhimdir.¹

Zarafshon vodisining Zirabuloqqacha bo'lgan qismi podshoh Rossiyasi tomonidan bosib olinib suvning boshi uning qo'l ostida bo'lgan. Zarafshon daryosi suvining taqsimoti Buxoro tasarrufidan chiqib Samarqand ma'muriyati ixtiyoriga o'tdi. Natijada Buxoroning suv ta'minoti ko'p jihatdan samarqandliklarning xohishiga bog'lanib qoldi. Buning ustiga irrigastiya xo'jaligidagi qoloqlik podsho ma'murlarning bu sohada tajribasizligi oqibatida Buxoroning suv ta'minotini yil sayin yomonlashtirdi. Buxoro Zarafshon daryosida suv kam bo'lgan davrdarda esa mutlaqo suvsiz qola boshladi. Buxoroning suv ta'minotida sodir bo'lgan bunday og'ir ahvol shubhasiz mamlakat obodonchiligi va xalqning to'qligi dehqonchilikka bog'liq ekanligini yaxshi tushungan o'sha davrning ilg'or mutafakkirlarni Buxoroni suv bilan taminlash masalasi ustida bosh ko'tirishga majbur etgan edi. Ahmad Donishning asarlarida Buxoroning suv taminoti to'g'risida bildrilgan fikrmulohazalariga e'tibor berilsa Buxoro aholisining suv tanqisligi tashvishidan ozod

¹ Sobir O'nar "A.Donish davrida ijtimoiy hayot". "Yoshlik" //, 2014 yil, 5-son

etish to'g'risida ko'proq qayg'urgan mutafakkirlardan biri shu asar muallifining o'zi ekanligi ma'lum bo'ladi¹.

Ahmad Donish Buxoro madrasalaridagi ta'limni isloh qilish g'oyasining XIX asr ikkinchi yarmidagi eng ashaddiy targ'ibotchisi, amaliyotchisi, qo'rmas va jasur tarafdoi bo'ib maydonga chiqadi. U yashagan shaharda mutaassiblik kuchli bo'lgan chog'da shijoatli qadam qo'yish uchun o'sha davr ijtimoiy - siyosiy hayotida katta mavqe va ta'sirga ega bo'lish kerak edi. Ahmad Donish ana shunday salohiyatga ega edi. U Madrasa mullalarining unga qarshi birlashib isyon ko'tarishlarini bilardi. Mullalar, eshonlarning zodagonlar va amaldorlar bilan umumiyl manfaatlari yagonaligini yaxshi anglar edilar. U o'z zamonasining ana shunday mutaassiblik botqog'iga botgan kuchlariga qarshi bosh ko'tardi².

Buxoro amirligida yerga nisbatan mulkiy munosabatning uch shakli mavjud edi: amlok — davlat erlari (amirlik xududidagi dehqonchilikka yaroqli yerlarning 50 foizini amir ixtiyoridagi yerlarni tashkil etar edi); Vaqf (maschit, Madrasa, xonaqoh, mozorlarga qarashli yerlar. Ular umumiyl yerlarning qariyb 25 foizini tashkil etar edi), mulk yerlari (xususiy yerlar bo'lib, ularga amir tomonidan katta xizmatlari uchun in'om qilingan yerlar ham kirgan. Bu yerlar salmog'i 15 foizdan ko'proqni tashkil etar edi) dan iborat edi. Amirlikda er mehnatkash dehqonlar kuchidan foydalanishning asosiy vositasi edi. Mehnatkash xalq; amirlikdagi barcha yerlarni eng oddiy va deyarli ibtidoiy bo'lgan mehnat qurollari bilan qabohatli shartlarda ishlab berishga mahkum qilinar edi. Shuni alohida aytib o'tish kerakki , XIX asr Buxorosinig iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi ustuvor ahamiyatga ega edi. Qishloq xo'jaligida esa sug'orish tarmoqlari hal qiluvchi omil bo'lib, suv tarmoqlari va manbalari ham amir va yirik yer egalarining mulki hisoblanar edi. Dehqon uchun, suvdan foydalanish ham yer singari uni qaramlikka tushirish vositalaridan biri bo'lib qolgan edi.

Aholidan olinadigan soliqlarning ko'payib borishi Rossiyaga qaramlik jarayoni boshlangandan so'ng o'zining avj nuqtasiga chiqdi. Sadriddin Ayniy o'z

¹ A.Razzoqov.“Iqtisodiy tafaffurlar sharchashmasi” Toshkent “O'zbekiston” 2011-yil 227 –b.

² T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyev.“Ikki tarixiy siymo” Buxoro 2015. 32-b.

“Esdaliklari” da bu xususda: “1868 yillargacha- Buxoro amiri bilan rus podshohi orasida tuzilgan sulnomagacha, Buxoro muzofotining boshqa tumanlari kabi G’ijduvon tumanidagi amlok to’laydigan dehqonlar ham yer hosilining o’ndan to’rt qismi, ya’ni qirq foizini podshohlikka berar ekanlar. Mazkur sulhnomadan keyin, rasman hali yozilmagan qonuni buzilmagan bo’lsa ham, amir Muzaffar Rossiyaga beradigan tovoni bahona qilib, ma’murlarga imkon boricha dehqonlardan yer solig’ini ko’proq undirib olish to’grisida og’zaki ko’rsatma bergen. Bu buyruqqa muvofiq ma’murlar dehqonlarning terisini shilishga kirishganlar”¹ - tarzidagi so’zlar bilan ifodalaydi.

Buxoroda davlat rahbari amir bo’lib, u cheklanmagan hokimiyat va huquqlarga ega edi. Ahmad Donish hayotni sevib, hech bir to’siq va qarshilikni pisand etmay mardona kun kechirdi. Shu boisdan ham uning asarlari rostlik, matonat ruhi bilan sug’orilgan.

Xudoni ulug’lab, Muhammadga rahmatlar aytganimdan so’ng, men buxorolik Nosir o’gli Ahmad Abu Bakr avlodidandirman. Yoshligimdan boshlab zamona ahllari qiziqqan ortiqcha ziynatli kiyim, naqshli salladan yuz o’girib, ilm axtardim, kitob yozish, tahrir qilish kabi qalam yuritish ishlari bilan qizdim. O’zim topgan foydali ilmlarim va ilm ahillaring dasturxonlaridan terib olganim hikmatli so’zlarni yakuni idrokim xazinasida to’plangan edi².

Agar biror masalada ko’nglimga shubha tushsa, uni o’zim o’ylab ko’nglimdan dalillar ahtarib hal qilar edim. Har kimdan har bir hikmatli so’zni eshitsam, agar u qisqa bo’lsa kengaytirib, ortiqcha uzun bo’lsa, qisqartirib yozar edim. Har bir so’z va har bir ishning haqiqatini ahtarib, unga yuzaki qaramas edim. Zamona ahli bunday ishlarga qobiliyatsiz bo’lgani holda, men ana shu ishlar bilan shug’llandim. Shunga ko’ra, bir qancha ilmiy hikoya va rivoyatlar hamda eshitgan va ko’rgan narsalarim qog’oz parchalarida yozila borib to’plandi. Zamondoshlarim bu yozgan narsalarimni olib o’qir edilarda, taajjublanib yana qaytarib berar edilar; chunki ilm-hunar bozori, ichki va tashqi bir qancha

¹ S.Ayniy “Esdaliklar” T.-5 -tom: 1965. 149-bet

² A.Donish. Navodir ul vaqoe O’zbekiston SSR. “Fan” nashriyoti 1964 y 34-bet

sabablarga ko’ra, kasod edi. Zamona ahllari kitob yozmoq ilm olmoq kabilarning vaqt o’tgan deb gumon qilar edilar. Bu ishni qilish uchun kashf etish kuchiga yoki avliyolik quvvatiga ega bo’lish kerak, agar bu ikki sifat bo’lmasa kitob yozish mumkin emas deyardilar. Holbuki, Eron Turkiya, Farangiston (Yevropa) mamlakatlarida har yili turli fan sohalarida besh yuzdan ortiq kitoblar yoziladi. Bu kitoblarning yozuvchilari va ular atalib yozilgan podshohlar bu kun ham tirikdirlar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” farmoyish imzoladi. Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga yetkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko‘rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan”, — deya kamchiliklarga ham alohida to‘xtalib o’tgan. Ushbu sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha tegishli takliflarni tayyorlash maqsadida kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh va kichik ishchi guruhlar tarkibi tasdiqlandi¹.

Ayni paytda, - deydi Sh.M.Mirziyoyev, “Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o’zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o’qishga bo’lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do’st bo’lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo’ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ’ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”².

¹ Sh.M.Mirziyoyev.“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish...” Xalq so’zi gazetasi 2017 yil 12-yanvar 1-son

² “XXI asr” gazetasi. 2016 yil 20 oktabr 6-soni

Qayd etib o'tish kerakki, adibning "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro", "Tarixi sultanati xonadoni mang'itiya", "Risolai dar nazmi tamaddun va ma'ovun", "Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla", "In risolaist isloh miyoni shia va sunn" "Buxorodan Peterburgga sayohat" kabi risolalari, "Daftari taqvimi" ham tariximizni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ahmad Donish umrining oxirlarida "Tarix risolasi" nomi bilan mashhur "Tarixi sultanati xonadoni mang'itiya" kitobini yozdi.

Ahmad Donish xalq va davlat, hokimiyat va yurtning tanazzuldan qutulishini o'ylardi. Shu bois u johil, nodon va ahmoq kimsalarni davlatdan himoyalashga urinmaganidek, ichdan chirib, buzilib ketgan davlatning odamlar hayotida biror o'zgarish qilishi haqida so'zlashni ham istamasdi. Uning birinchi orzusi axloq va tafakkur edi. «Navodiri Ziyoiya» tazkirasi muallifi, olim va ma'rifatparvar Sadri Ziyoning e'tiroficha, - "Ahmad Donish butun umrini amir, vazir, qozikalon va boshqa amaldorlarni keljakdan ogoh etish, oddiy odamlarga zulm o'tkazmaslikka chorlash, ularni zo'ravonlik, berahmlikdan qaytarishdek ezgu ishlarga sarflagan lekin jamiyat hayotida biron bir o'zgarish ko'rmagan"¹.

Buxoro amirligi huquqiy jihatdan mustaqil sanalsa ham haqiqatda rus podshosiga qaram edi. Buxoro amirligining podsho Rossiyasiga tobeligi Amir Said Olimxon (1880—1943) podsholigi zamonida (1910-1921) yanada ortdi. Amirlikda yettita rus xususiy bankining sho'basi ish olib bordi. 1914 yilda Birinchi jahon urushi boshlanishi bilan, amirlik ahvoli yanada og'irlashdi. Xuddi shu davrga kelib, jadidlik harakati asosida yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati kuchaydi. Buni tarix isbotlab turibdi jadidchilarning ham asosiy harakatlari ham amirlikda islohotlarni amalga oshirish bo'lган edi. Jadidchilk harakati dastlab Ahmad Donish boshlab bergen desak adshmagan bo'lamiz.

¹ I.Haqqul."Ahmad kalla" "Buxoro mavjilari" jurnali. 2009 yil 1-son 10-b.

1.2. Mutafakkirning Buxoro amirligi davridagi davlat boshqaruvi muammolari tahlili.

Inson nima uchun yaratilgan, yaratilgandan so'ng uning yaxshiligi nimada va u nimani xoxlashi kerak, jamiyatda inson qanday bo'lishi kerak, xalqni tashkil etuvchi har bir oddiy insondan tortib yuqori lavozim egalarigacha o'zligini biladimi?

Ahmad Donishning hikmatli so'zldan biri keltirishimiz mumkin:

...Har ishning xaqiqatini inson ocha oladi.¹

Bu yerda qancha ma'no yashiringan har bir inson o'zi uchun atrof muhitni o'zi yaratadi uning boy yoki kambag'al bo'lisliga o'zi sababchi jamiyatdagi o'rnini ham o'zi yaratadi.

Ahmad Donish mang'it amirlari saroyida katta mansablarda ishlaydi, saroyda berilgan nafaqa bilan rohat — farog'atda yashashi mumkin edi. Xalq uchun, el - yurt uchun, vatan uchun o'z halovatini buzdi. Undagi bu jur'at va jasorat ibratdir. Ahmad Donish ona shahri obod, qilish uchun o'zining butun vujudini bahsh etgan fidoiy inson, u insonparvar qomusiy olim, u jamiyat hayotining barcha tomonlarini chuqur o'rgangan va tahlil qilgan. U xalqning ayanchli turmushini anglash yo'llarini izlaydi. Buning uchun Buxoro amirlariga ochiqdan - ochiq tavsiyalar va maslahatlar beradi, uning bu dadilligi, ochiq, to'g'ri fikrlari, amirlarga yoqmaydi, bu faoliyat esa dushmanlari safi kengayishiga olib keladi.

Davlatniadolat bilan boshqarishga aqlu idrok va ilmu tafakkur nuqtai nazaridan yondashish Ahmad Donishning qarshlariga xos xususiyatdir. Ahmad Donish "agar davlat aql, ong prinstiplariga muvofiq tarzda tashkil etilmasa va boshqarilmasa, unday davlatdan yaxshilik kutish mumkin emas" deb hisoblaydi. Bu fikr Sharq mutafakkirlardan Alisher Navoiy ilgari surgan va oqil hukmdorlar amal qilgan davlatni ilm-ma'rifat ahliga tayanib boshqarish g'oyasiga hamohangdir.

¹ A. Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 37-b.

XIX asrning 2- yarmi va XX asr boshlarida ham Buxoroda mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, despotizm va mutaassiblik, iqtisodiy nochorlik va qoloqlik, mahalliy va mustamlakachilik zulmining nihoyatda kuchayganligi ma'rifatparvarlik g'oyalarining kirib kelishiga tog'dek to'siq bo'ldi. Har qanday dunyoviy ilm va adabiyotlarning kirib kelishiga yo'l bermadi¹.

Podshohlar, askar boshliqlari, karvon boshilari insofli, to'gri so'zli va ishonchli bo'lishlari ustiga, butun yaxshi sifatlarga ega bo'lishlari lozimdir. Shunday bo'lgandagina ular o'z buyruqlarini ustidan yurita oladilar. Agar podshoh axloqsiz vaadolatsiz bo'lsa, u holda uning amr va farmonlari hamda har xil nasihat so'zlari xalqga ta'sir qilmaydi. Agar qamchi solib, askar kuchini qo'llanib qo'rkitish bilan so'zini yurita olsa ham, haqiqatda esa unday podshoh buzuq odamlariga o'zi yordam qilgan bo'ladi². Ahmad Donish bu so'zlarni yillar davomidagi tajribalardan kelib chiqib qo'rmasdan fikrlar keltira olgan. Yuz berayotgan voqealarni xolis tahlil qilishni yaxshi ko'rgan.

Bayt:

Muxtasib kun barahna dar bozor,
Ko'hbaro chun zandkiy run bipush.

Tarjimasi:

O'z aybini yopolmagan rais bozordagi buzuq
Xotinlarni yuzingni yop deb, qanday ura oladi.

Bu so'zlardan xulosalar chiqarishimiz mumkin . Hozirgi davrda ham bu so'zlar o'z ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan ham quyidagilar aytib o'tilgan “Mamlakatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash hisoblanadi”.

“Asosiy maqsadimiz — fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda sudni asl adolat maskaniga aylantirish yo'li bilan xalqning sud

¹ T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyev. “Ikki tarixiy siymo” Buxoro 2015-y 35-b.

² A.Donish. Navodir ul vaqoe O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 38-bet

tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash”, — ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev. Uning aytishicha, asosiy vazifalardan biri kuchli iroda, yuksak professional va axloqiy sifatlarga ega, har tomonlama o‘ylangan va adolatli qarorlar qabul qila oladigan sudyalar korpusini shakllantirishdir.

“O‘z sohasini mukammal bilmaydigan, professional ko‘nikmalar va hayotiy tajribaga, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lmagan yuristlar hech qachon bu mansabga tayinlanmasligi lozim”, — qayd qilib o‘tdi davlat rahbari¹.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Mazkur farmonda sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo’nalishlarni belgilab berdi:

1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash;
2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
3. Odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Buxoro hukumdorlari mamlakatni obodonlashtirish, yo’l qurilishi, sug’orish tizimi inshootlarini barpo qilish, madaniy — ma’rifiy ishlarni yo’lga qo’yish, tibbiy xizmat ko’rsatish va shunga o’xhash ishlarga e’tibor bermaganlar. Buxoro amiri xalqdan olingan soliqlar hisobidan katta boylik to’plasada, xalq manfaati va taraqqiyoti yo’lida deyarli hech narsa qilmagan. Buxoroda davlat rahbari amir bo’lib, u cheklanmagan hokimiyat va huquqlarga ega edi. Shu bilan birgalikda Buxoro amiri o’z qo’l ostidagi barchaning ham mulkiy, ham jismoniy, ham ma’naviy xo’jası edi. Tarixchining yozishicha, amir cho’pon o’z boquvidagi xoxlagan qo’yini olib so’yishi mumkin bo’lganidek, amir aholining o’zi xoxlagan a’zosi taqdirini hal qilishi mumkin edi.

Sulton ko’pchilik xalq rizoligi va davlat ulug’larining maslahatlari bilan o’ziga ikki vaziri dono saylab olsin. Biri mamlakat kirimi, ikkinchisi esa mamlakat

¹ Sh.M.Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”. T.: “O‘zbekiston” -2018 y 430-b.

chiqimini hisob qilsin. Bu ikkalasining darajalari boshqa xizmatchilarning hammasidan yuqori tursin. Butun harbiylar ustidan boshchilik qilish uchun askar amirini saylasin. Ikkinchи butun qalam ahllari ustiga yana bir rais tayinlasin. Bu so'nggi ikkalasining darajalari avvalgi ikkalasining darajalaridan pastroq bo'lzin. Bu to'rt boshliq mamlakatning to'rt ustunlaridirlar. Bularning hukmlari o'z qo'llarida bo'lib, qatl va azildan boshqasini podshohdan so'rab o'ltirmasin. Yana O'rda xizmatchilariga rahbarlik qilish uchun mushirlik mansabiga bir kishini tayinlasin. Uning esa bu yuqoridagilardan darajasi yana tubanroq bo'lzin. Balki o'zini ularga xodim darajasida tutsin. Yuqoridagi to'rt boshliqdan kelgan ariza va bayonnomalarni o'z vaqtida sultonga yetkazib, javobini qaytarsin. Harbiylarning azl-nasab ishlari bo'lsa amiri lashkarga topshirilsin. Butun qalam ahllari: qozilar, muftilar, mudarrislar kabilarning ishlari o'z raislariga topshirilsin. Kirim vaziri mamlakat kirimlaridan, chiqim vaziri esa chiqimlaridan, amiri lashkar o'z qo'l ostidagi harbiy ishlardan va raisu ulamo o'zining qilgan ishlardan har kunda bir marotaba yoki haftada ikki marotaba o'rda mushiriga ma'lumot berib, sultonga yetkazsin. Shu bilan sulton ham mamlakatda bo'layotgan kundalik ishlardan xabardor bo'lib tursin. Agar bu arizalar sultonga qabul bo'lsa, unga o'z qo'li bilan nishon ko'nib, hisob daftariga qayd qilsin. Bo'lmasa aksini bildirsin yoki shubhali joyi bo'lar ekan, uni so'rab tushunsin. Agar shu aytilgan tartibga muvofiq ish olib borilsa, davlat ishlarida yengillik yuz berib podshoh ham ancha tinchiydi. Yana o'ziga zarur bo'lgan vazifalarni ham qilishga ulguradi¹.

Ahmad Donish xalq hayotini yaxshilash, davlat va ishtimoiy munosabatlar boshqaruvini takomillashtirish masalalariga qiziqish bilan qarar edi. Amirlik tizimida insonlar sog'ligini yaxshilash masalalarga qaratilgan choralar ko'rinasdi. Fuqarolar sog'ligi esa tibbiyat fanini bilmagan shaxslar-mullo, eshonlar, tabiblar, folbin va sartaroshlar qo'lida bo'lgan. Xotin-qizlar ahvoli ham juda og'ir bo'lgan. Buxoro amiri davlat boshqaruvi va qonun chiqaruvchi shaxs bo'lgan. Amirlik amaldorlari mang'itlar susolasidan yoki ularning urug'-qarindoshlaridan bo'lgan.

¹ A.Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 79-b.

Buxoro amiri qaramog’ida Devonbegi, Qo’shbegi va Qozi kalom kabi lavozimlar bo’lgan. Buxoro xonligi 27 beklikdan iborat bo’lgan. Beklikning boshlig’i Bek bo’lgan, u amir tomonidan tayinlangan. Bekliklar amaldor(uezd)larga bo’lingan, ularning boshliqlari amaldorlar bo’lgan. Amaldorlar kentlarga (tuman)larga, ular esa qishloqlarni tashkil totgan, Kentlarning boshligi aminlar, qishloqlarning boshliqlari oqsaqollar bo’lgan. Buxoro bekliklarida qozi(sud), muftiy va rais bo’lgan. Bu lavozimlarda faqat katta boylar yoki ularga qarindosh bo’lganlar o’tirganlar. Buxoro amirlarda hamma narsalar boylarning manfaatini ko’zlab amalga oshirilgan. Buxoro xonligida aholi ikki tabaqaga bo’lingan, feodallar (boylar, amaldorlar, ruhoniylar) na dehhqonlar (yerlari bo’lmanan va yerlari kam bo’lgan dehqonlar)¹.

Buxoro davlat tuzumiga ko’ra monarxiya davlati edi. Davlat tepasida amir, ya’ni yakka mustabid hukmdor turgan. Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo’lib, butun hokimiyat uning qo’lida to’plangan. U davlatni o’zi ishongan eng oliv toifadagi amaldorlar (arkoni davlat) ga tayanib idora qilgan. Hukmdor amalda davlatni boshqarishda eng nufuzli qabilalarning boshliqlari bilan hisoblashib ish tutgan. Buxoro amirligi ma’muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo’lingan. Chunonchi amirlik davlati 40 viloyat va tumanliklardan iborat edi. Amirlikning yer maydoni taxminan 270 ming km², aholisi esa 2 mln atrofida bo’lgan. Aholisini o’zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa xalqlar tashkil etgan. Amir tayinlaydigan hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan. Amirlikning poytaxti Buxoro shahri va viloyatini qo’shbegi boshqargan. Amirlikning alohida davlat xazinasi bo’lmanan. Xazina amirning mulki bo’lgan. Amirlikning davlat muassasalari ma’muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo’lgan. Ulaming har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan. Buxoro xonligi saroyida 30 ga yaqin amaldor xizmat qilgan. Mahalliy boshqaruvi muassasalarida xizmat qiluvchilarning soni 30 ming

¹ Rahmon Muiniy “Ahmad Donish hayoti haqida”. “Buxoro” nashroyoti 2007-yil 11-b.

atrofida bo'lgan. Bundan tashqari, 40 beklik-viloyat tepasida mahalliy qabila boshliqlari turardi¹.

Davlat boshqaruvi masalasida Buxoro amirligida paydo bo'lgan o'zgarishlar Ahmad Donishning Moskva va Peterburg shaharlarida bo'lishi bilan bog'liq. Uning u yerda davlat boshqaruvining o'ziga xos shakllarini ko'rishi unda boshqaruva tizimiga oid yangidan-yangi qarashlaming paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ma'lumki mazkur davrdagi Buxoro amirligidagi boshqaruv tizimi davr nuqtai-nazaridan qaralganda juda eskirib qolgan hokimiyat Chingizzon zamonidan qolgan tartib asosida boshqarilmoxda edi. Shuning uchun ham Ahmad Donish davlat boshqaruv apparatini zamona talabiga mos holda qayta qurish kerak degan fikni o'rtaga tashlaydi. Rossiya podsholigidagi boshqaruv tizimi Donishning fikricha Buxoro amirligi boshqaruv tizimidan yaxshiroq edi. Bu haqda ko'plab asarlardan bilib olishimiz ham mumkin.

Alloma A.Donish qilgan safarlari davomida Peterburg shaharlarida ko'rgan yangiliklarini Buxoroda tatbiq etdi. U davlat boshqaruv tizimiga ham oid demokratik islohatlaming tarafdori bo'ldi. Uning Peterburgga qilgan safari va imperator qizining to'yi munosabati bilan yozgan to'qqiz baytlik shc'ri orqali imperatoming e'tiborini tortdi va bu bilan undan avvalgi elchilaming qilgan gunohlari ham yuvilib ketadi. Bu xizmati uchun esa imperatordan maxsus tortiq ham oldi. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi munosabatlari Muzaffarxon davrida ya'ni Ahmad Donish elchiligidan keyin yanada rivojlandi.

Vohaga ruslar kirib kelgandan so'ng Sherobod bekligi tarkibida yangi boshqaruv tizimi joriy qilingan. Termiz ikki qismdan iborat bo'lib uning harbiy garnizon joylashgan sharqiy qismi qal'a bilan o'rab olingan. Shahaming bu qismida hokimiyat garnizon boshlig'ining qo'lida bo'lib shu hudud aholisi ham unga bo'ysunardi. Termizning janubiy qismi Pattakesar qishlog'i deb atalgan undagi mahalliy aholi Buxoro amirining qonunlanga amal qilib amir tomonidan tayinlangan beklarga bo'ysunar bu yerda yashagan rus fuqarolari (yevropalik aholi) esa Rossiya imperiyasi ya'ni shahar kengashi tomonidan idora qilinadi. Shunday

¹ U. Jo'rayev , R.Farmonov, Sh.Ergashev "O'zbekiston tarixi" T: 2014 yil 38-b.

qilib birgina Termizning o'zida uch xil boshqaruv tizimi mavjud bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Bunday murakkab boshqaruv tizimi mahalliy aholiga ham katta qiyinchiliklar tug'dirgan. Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan shayxulislom XVII— XVIII asdarda davlatda eng oliv toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko'rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib asosan arzlar va Payg'ambar hamda uning xalifalari bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan masalalami ko'rib chiqishdan iborat bo'lib qolgan. XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida shayxulislom o'rnni qozi kalon egallaydi. Amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon shayxulislom naqib va rais (muhtasib) qatnashgan. Aslida esa Buxoro amidigida rasman uchta diniy unvon: 1) o'roq 2) sudur 3) sadr mavjud bo'lgan.¹

Buxorodagi barcha fuqaro sudi (mahkamasi) shariat bo'yicha boshqarilgan va bu boshqaruv „qozi” deb ataluvchi shaxslar qo'lida bo'lgan. Bosh qozi, ya'ni qozi kalon poytaxt bosh qozisi va ayni paytda amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig'i hisoblangan. Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ulaming shikoyatlarini shu masala bo'yicha shug'ullanuvchi maxsus amaldor, ya'ni qozi askar ko'rib chiqqan. Ushbu turdag'i jinoyatlarga fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida bo'lgan. Bundan ko'rinish turibdiki, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik jinoyat ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilgan.²

Buxoro amirligi boshqaruv tizimida o'ziga xos o'rini „rais” egallagan. Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulida edi. Buxoro amirligida bosh rais odatda eshon rais yoki rais ush-shariat deb atalgan. Bosh rais ulamoi amir oldida tekshiruvdan o'tkazib turgan Buxoro amirligining davlat boshqaruvi ma'muriy - moliyaviy, mirshablik sudi va harbiy mamuriyatdan iborat edi. Unga amirlikning farmoyish beruvchi va ijro etuvchi hokimiyati bo'ysunar edi. Amirlik ma'muriyatining eng katta nufuzli va kuchli mansab egalari quyidagilardan iborat edi: Devonbegi moliya xazina ishlari, xarajatlar taqsimotchisi va soliqlar yig'ish ustidan nazorat qiluvchi; zakotchi kalon mulk va chorva mollaridan soliq

¹ A.Sirojiddin.“Mang'itlar davrida Buxoro amirligi iqtisodiy tarixi” T.:2014-yil 25-b.

² R.Xoliqov.“Rossiya –Buxoro tarix chorrahasida”. T.: “O'qituvchi”HMIU.2005-yil 66-67-betlar

yig'uvchi; qozi kalon-(oliy sud) sud tizimi ishini boshqaruvchi; to'pchiboshi. Buxoro qo'shinlarining bosh qo'mondoni va to'plarni boshqaruvchi; mirshab — tungi soqchilari boshlig'i, zindon (qamoqxona) boshligi va hokazolar. Buxoro amirligi bekliklarga bo'lingan va uning boshida beklar va tumanlar boshida amlokdorlar turishgan, bu mansabdorlar vazirning tavsiyasiga ko'ra oliy hukumdar tomonidan tayinlangan. Mansablar taqsimlanayotgan paytda nomzodning oliy hukumdar va yirik markaziy - ma'muriy mansabdorlarga nisbatan urug'-aymoqchilik munosabatlari yoki bergen porasining miqdori inobatga olingan. Mansabdorlarga ish haqi davlat xazinasidan emas, balki egallab turgan mansabini suiste'mol qilib aholidan yig'ib olinadigan to'lovlar hamda soliqlar hisobidan, o'rta asrchilikning jirkanch holati aholini talash yo'li bilan undirilgan daromaddan bo'lgan. Amirlikning bunday amaldorlari esa 50 mingga yaqin edi.

A.Donish xalq ichidagi oqil odamlardan maxsus kengash (parlament) tuzib, davlatni idora etish g'oyasini ilgari suradi: "Podshohga lozimdirki, katta bir mashvaratxona ochsin. Bunday ish hozirgi nizomlik davlatlar ichida mamlakat tutishning eng muhim ishlaridan hisoblanadi. Mamlakat xalqining turli tabaqalaridagi eng aqlii va ilmli odamlardan u mashvaratxonaga a'zo saylab, ularga maosh tayin qilsin. U joyga yig'ilgan mashvaratchilar xalqning hamda davlatning manfaatini kuzatib fikr fikr yurgizsinlar. Ular nima narsaga ittifoq qilgan bo'lsalar, u ishni amalga oshirsin. Mashvaratxonada doimiy turishlari lozim emasdir, balki saylanmish odamlar har kuni bir necha soat to'planib, mamlakatning foyda va zararlarini tekshirib tursalar kifoya"¹. Mazkur fikrlari bilan muallif Aflatun va Forobiyning davlatni isloh qilishga doir qarshlarini yanada rivojlantiradi. U ijtimoiy-siyosiy munosabatlar haqida to'xtalar ekan, podshoh va xalq munosabati qanchalik iliq bo'lsa, jamiyat farovon, mamlakat obod bo'ladi deb hisoblaydi va buni mamlakat rahbarining marhamati hamda adolatiga bog'laydi.

Ahmad Donishning fikricha, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson mansabi, moddiy mavqeい jihatdan farqlanishi mumkin, ammo ijtimoiy yoki

¹ A.Donish.“Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 58-59-betlar.

umuminsoniy qadriyatlarni o’zida mujassamlashtirib, uni namoyon etish nuqtai nazaridan hamma birdek mavqega egadir.

Ahmad Donishning Navodir ul-vaqoe Mamlakatni boshqarish va xalqni ma’rifatli qilish haqida risolasining birinchi faslda podshohlar xalq bilan va haq tarafdarlari bo’lgan xalq bilan qanday muomalada bo’lishlari kerakligini ochib berishga harakat qilgan. Ma’lumki, podshoh bo’lish, xalq ustidan hukmronlik qilish hayot olamida eng ulug’ ishlardandir. Shundan bo’lgach, bu xizmatni podshoh ilm va amal bilangina bajara oladi.

Xalqqa foyda keltiruvchilar, ularga shavqat va mehribonlik qiluvchilar ulug’ darajaga erishadilar. Davlatimizning rahbari Sh. M. Mirziyoyev 2017 yilni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb nomladilar va bu shior xalqimiz tomonidan xursandchilik bilan qabul qilindi. Yilning bunday nomlanishi zamirida davlat organlarining xalq bilan munosabatlarini yanada mustahkamlash, fuqarolarning murojaat qilish huquqlarini kafolatlash va mavjud muammolarni oqilona hal etish maqsadlari mujassamdir. Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, — bugun hayotimizning o’zi eng asosiy maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo’ymoqda. Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, uning dardu-tashvishlari, orzuniyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak¹.

Iqtisodiy jihatdan qoloq bo’lgan Buxoro amirligi tuzumi siyosatiga qarshi chiqqanlarni zindon kutar edi. Buxoro amirligida zulm yuqori darajada bo’lganligi uchun ko’pgina fuqarolar oilalari bilan Buxorodan qochib ketishga majbur bo’lganlar².

Ahmad Donish mamlakagda adolatsizlik, iqtisodiy qiyinchilikni o’rganish va unga chora ko’rish yo’qligi haqida kuyinib “Mamlakagda adolatsizlik shu darajada avj olgan ediki, amaldorlar qo’lidan oddiy dehqon, kosib bozorda o’z

¹ Sh.M.Mirziyoyev.“Milliy taraqqiyot yo’limizni qa’tiyat bilan davom ettirib,”.T.: “O’zbekiston” -2018 y 114-b.

² Rahmon Muiniy. “Ahmad Donish hayoti haqida”. “Buxoro” nashriyoti 2007-yil 12-b.

mahsulotini erkin sota olmas, merosxo'r o'z haqqini va hissasini ololmas edi" deb aytib o'tgan edi.

Ahmad Donish Buxoro amirligidagi kamchiliklarni tahlil qilib ilmiy asar yozadi va amir Muzaffarniadolatlikka chaqiradi. Ilmiy asarning asosiy manosi: Buxoro amirligi sharoitidaadolatli va ma'rifatli davlatni yaratib, tuzumni isloh qilish asoslari yozildi. Ahmad Donish amirdan xalqaro qonuniyatlariga rioya qilishini so'raydi. Chet davlatning elchisi bilan amir yaxshi muomalada bo'lisci kerak. Ahmad Donish amirdan so'raydiki Buxoro amirligi elchilar etib yaxshi ma'ruzachi qobiliyatiga ega, suxandon va sharoitga qarab to'g'ri va tez chora ko'radigan shaxs tayinlinishi kerak. U amirlikda ko'p qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilyapti. Qozilar qonunbuzarlarga to'g'ri jazo berishga intilishlari kerakligini ko'rsatadi. Ahmad Donish davlat himoyasi to'g'risida gap yuritib mudofaa ishlariga katta ahamiyat bo'lischini yozadi. Amir mudofaa masalasi bilan xar vaqt o'zi shug'ullanishi shart deydi. Mudofaa holatlari qo'shinlarning sardorlarga ham bog'liq. Qo'shining boshliqlari botir, uzoqni ko'radigan, irodisi mustahkam shaxs bo'lisci kerak. Keksa amaldorlarning o'rinalarida ularning avlodlari bo'lisci lozim. Bosh qo'mondon uch narsaga: jangovarlik, to'gri fikrlilik va harbiy amaliyotga ega bo'lisci shart¹. Bu fikirlardan shunday xulasa chiqarish mumkinki mansabdorlar bilim va katta tajribaga ega bo'lischlari kerak. O'z vazifasini bajaroyotganda xalq manfaatlarni ham hisobga olishi kerak.

Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni– bu Bosh vazir yoki uning o'rinnbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi , ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak-deb Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytib aytib o'tganlar².

Ahmad Donish amirlik tizimini adolatsizligini ko'rib uni oxirati yaqin bo'lischini aytadi. Buxoro amirligining tuzimi yomon bo'lganlign tufayli bu davlat tez yakson bo'ladi, yakin orada amirlikda katta o'zgarishlar bo'lischiga ishonaman,- deb yozadi. U yana yozadiki, zolim amir va uning amaldorlarining oxirgi kunlari

¹ Rahmon Muiniy "Ahmad Donish hayoti haqida". "Buxoro" nashriyoti 2007-yil 15-b.

² Sh.M.Mirziyoyev. "Taqidiy tahlil ,qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lisci kerak" T.: "O'zbekiston"-2017 yil 6-b.

yaqin. Amir va uningadolatsiz mansabdorlari yer yuzidan yo'q bo'ladilar va ularning boyliklari amirlikka qarshi chiqqanlarniki bo'ladi va ular dorga osiladilar-deb yozadi Ahmad Donish. Yana Ahmad Donish amir Muzaffarga yozadiki "Adolatli qonunlarni yaratish uchun kuch sarflash kerak. Amirlikda esa bir to'da poraxo'rlar qonunni himoya qilish o'rniga poraxo'rlarni himoya qilish yo'llarini izlayaptilar".¹ Ahmad Donishning bu so'zlardan shunday ma'nolar kelib chiqadi amirlik hayotida poraxo'lik keng avj olganini bilib olishimiz mumkin. Tarix buni bizga katta tajriba bilan isbotlab bergen korrupsiya aralashgan har qanday sohada orqaga qarab siljich bo'ladi hech qachon oldinga rivojlanmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Jamiyatimizda korrupsiya, jinoyatlami sodir etish va ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rilmoxda. Fuqarolarning huquq va erkinliklarni qog'ozda emas, amalda himoya qiladigan tizimga aylanishi lozim"².

Ahmad Donish kuchli demokratik davlat hamda ijtimoiy tenglik, ijtimoiy adolat ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish orzusi bilan yashagan. Uning bu boradagi qarshlari xozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

¹ A.Donish."Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 33-b.

² Sh.M.Mirziyoyev."Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz".T.: "O'zbekiston" -2018 y 214-b.

II.BOB. Ahmad Donish asarlarida Buxoro amirligi tarixi masalalari.

2.1. Ahmad Donishning tarixiy asarlarining tasnifi.

Bugungi kunda O`rta Osiyo va xususan, Buxoro amirligining Chor hukumati tomonidan mustamlakaga aylantirilishi tarixini o`zida aks ettirgan mahalliy muarrixlar tomonidan yozilgan bir qator asarlar mavjud. Bulaga misol qilib quyidagilarni aytish mumkin, Abdurauf Fitrat . “Amir Olimxon hukumronligi davri”, Mirza Abdulazim Somiyning "Mang'it hukmdorlari tarixi", Mirza Salimbekning "Tarixi Salimiyl", S.M.Olimiyning "Buxoro - Turkiston beshigi", Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" (Nodir voqealar) va "Buxoro mang'it amirlarining muhtasar tarixi" va boshqa bir qator asar mavjud.

O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" ("Nodir voqealar"), "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" ("Buxoro amirlarining tarjimai hollari"), "Tarixi sultanati xonadoni mang'itiya" ("Mang'it amirlari tarixi"), "Daftari taqvim" ("Kundaliklar"), "Risolai dar nazmi tamaddun va ma'ovun" ("Madaniyat va jamiyat tartibi haqida risola"), "Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla" ("Ahmad Kalla hikoyalari to'plami"), "In risolaist isloh miyonni shia va sunn" ("Shialar va sunniylarni yarashtirish to'g'risida nasihat"), "Manozir ul-kavokib" ("Sayyoralarning joylashuv'i"), "Risola fi a'mol al-kurra" ("Globusdan foydalanish yo'llari"), "Majmui risolai nujum", "Me'yori tadayyun", "Buxorodan Peterburgga sayohat" singari 16 ta qo'lyozma asari. Mazkur manbalar ichida eng yirigi Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" (Nodir voqealar) asaridir. Ushbu asarda muallif o`zidan oldin o`tgan faylasuflarning, birinchi navbatda Bedilning ba`zi falsafiy qarashlarini tahlil qilgan. O`z zamonasining qo`ygan masalalarini hal qilishga intilgan. Ushbu asar ahamiyati jihatidan XI asrda yozilib saljuqiylar sulolasiga tarixiga bag'ishlangan Nizomulmulkning "Siyosatnama" asariga qiyoslash mumkin.

"Navodir ul - vaqoe"" kitobining birinchi bobu "Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatli qilish xaqida risola" deb nomlanadi. Biz ushbu ishda

Ahmad Donishning "Dunyo tarixi va qadimligi xaqidagi bobi to'g'risida so'z yuritamiz. Bu bob uncha katta bo'lmay, unda dunyoning yaratilganligi, o'shandan beri qancha vaqt o'tganligi masalasi qo'yilgan bo'lib, Ahmad Donish jahonda mashhur bo'lgan hind, xitoy, fors xukamo (olim) larining fikrlarini keltiradi. Xuddi shuningdek Ahmad Donish Xitoy va uyg'urlarning ham olamning yaratilishidan shu kungacha, ya'ni Ahmad Donish yashagan davrgacha bo'lgan vaqt sanasini hisoblab beradi¹. Asarning asosiy mazmunini – xalqni ma'rifatli bo`lishga chaqirish, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish kabi g'oyalar tashkil etadi. "Navodir ul-vaqoe"ni o`z davrining entsiklopediyasi deb aytsak bo`ladi. Asar Ahmad Donish Peterbugga qilgan ikkinchi safaridan keyin 1868-1873 yillar oralig'ida yozilgan. Ammo Buxoroda bosmaxona mavjud bo`limgani uchun chop etilmagan. Kitob yozilishi davomida tartibga solinmay uning ayrim sahifalarini yaqinlariga o`qishga bergen. Bu haqida o`zi shunday deydi: "Zamona ahlining qilgan ishlari, ularning harakatlari menga yoqmas edi. Juda ko`nglim olinib, yuragim torayib ketganda qayg'u alamlarimni chiqarish uchun do`stlarim yoniga qalam olib borib, qog'oz yuzini qoralash bilan shug'ullanardim. Mening mijozimni bilganlar shu yozilgan tarqoq varaqqlarni tartibga keltiishgan, hikoyalarni ko`rib: o`z yozganlaringni boshqalarning so`zlaridan ajratib, bir to`plam kitob holiga keltirgin", deganlarini bayon etadi.²

Ushbu asarning yozilish sanasi va boblari to'g'risida turli fikrlar mavjud. "Navodir ul-vaqoe"ning kirish – "Ahmad Donish va uning "Navodir ul-vaqoe" asari haqida" qismida ayttilishicha, asar 13 bobdan iborat deyiladi. Andijon Davlat Universiteti tadqiqotchilari Arofat Abdullaeva, Xurshid Xolmirzaevlarning "Navodir ul-vaqoe" o`zbek tilida" nomli Ahmad Donish tavalludining 180 yilligi munosabati bilan o`tkazilgan anjumandagi ma`ruzalarida asar 22 bobdan iborat bo`lib, 1875-1882 yillarda yozilgan deyiladi. Ushbu asar muqaddima, 3 fasl(qism) va xotimadan iborat.

¹ T.E.Rahmonov ,M.Z.Orziyev. "Ikki tarixiy siymo" Buxoro -2015-y 36-b.

² A.Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 33-bet.

1-faslda amirlik va raislikning fazilati hamda podshohlar va davlat arboblarining xalq bilan qanday muomala qilishlari haqida.

2-faslda amirlarning askarlar bilan hamda davlat arboblari, hukumat xizmatkorlari qanday yo`l-yo`riq tutishlari haqida

3-faslda podshohlarning elni idora qilishlari, xalqparvar bo`lishlari, o`z qo`l ostidagi fuqarolarning ehtiyojlarini qanoatlanarlik darajada chiqarib tutishlari haqida. Xulosa qismida esa Buxoro amirligidagi mavjud tuzum haqida fikr yuritilgan

Mazkur asar boblari alohida-alohida masalalarni o`z ichiga olgan. Masalan, ota-onva farzand munosabatlari (1-bob), mol-dunyo (2-bob), tarix (3-bob), olim va johil taqdiri (4-bob), vaqt qadri (5-bob), safar qilish foydalar (6-bob) A.Donishning 1869-yilgi Rossiya safariga bag`ishlangan va 1957-yilda chop etilgan. (7-bob) podshoh Aleksandr II ning qizi Mariyaning 1874 yilda bo`lgan nikoh to`yiga yuborilgan elchi Abdulqodirbek safari haqida. (8-bob), ilm-fan manfaati (9-bob), haqiqiy va majoziy ishq hamda uning odobi (10-bob), nikoh (11-bob), taqdir (12-bob), kasb-kor (13-bob), jism va ruh (14-bob), yer tuzilishi va ma'danlar (16-bob), tush ta'biri (19-bob), Bedil baytlari (20-bob), ayrim hadislar talqini (22-bob), inson axloqini belgilash (23-bob) kabi. Tamaddun haqidagi risolasi (15-bob) va xilma-xil voqeiy hikoyalar (18, 21-boblar) ham asardan joy olgan. Ularning har biri ham muhim va qiziqarlidir.

“Navodir ul vaqoe” kitobi Ahmad Donishning asosiy asari hisoblanibdi. Unda olim o`zining turli masalalarga munosabatini ifodalagandir. Ahmad Donish ij’timoiy-siyosiy tuzum, tartib va munosabatlarni tanqid ostiga oladi. O’rta asr falsafasida keng tarqalgan tavakkul nazariyasini tanqid etib, bunday deb yozadi: “Agar kishi tavvakulga ishonib harakat qilmasa, mehnat qilmasa va qiyinchilikda, kambag’allik bilan hayot kechirish yoki mo’l-ko’lchilikda yashash qismatda bor ekan” deb aytsa, unday kishi xato qiladi. Demak, u aqli emas. Buxoro xonligini Ovropa mamalakatlari, xususan Rossiya bilan taqqoslab, Donish o’z vatanini

iqtisodiy, madaniy jihatdan orqada qolganligini ko'rsatib beradi va bu qoloqlikdan chiqish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzumda islohotlar qilish zarurligini uqtirdi¹.

Ahmad Donishning ushbu asari haqida Sadriddin Ayniy "Esdaliklar"ining 7-jildida (4-qismi) bir qator ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu jildda Ahmad Donishning yirik asari "Navodir ul-vaqoe" bilan birinchi tanishuvim deb atalgan qismi to`liq mazkur asarga bag'ishlanadi. Muallifning ta'kidlashicha, "Navodir ul-vaqoe" asari borligini hamma bilsada, uning kimning qo`lida ekanligini hech kim bilmasdi. Keyinchalik ma'lum bo`lishicha, Ahmad Donish hayotligi davrida bu kitobning o`z qo`li bilan yozilgan nusxasini Siddiqxon bilan maxfiy aloqa bog'lab, nusxa ko`chirish uchun u kitobni omonat olgan va ko`chirishni xushxat mirzo Abdulvohid Munzimga topshirgan.

Sadriddin Ayniy Ahmad Donishning badiiy til va uslub sohasidagi eng yaxshi an`analarini o`zlashtirib olishga va rivojlantirishga intiladi. Ayniy bu haqda shunday deydi:"Navodir ul-vaqoe" kitobini dastlab ko`rganim va o`qiganimda menga ta`sir qilgan joylari juda ko`p edi... "Navodir ul-vaqoe" bilan tanishuvim menga inqilobiy fikrlarni uyg'otibgina qolmay, balki nasrnavis bo`lsaydim, nasrnavislik muyassar bo`lganida ham Ahmad Mahdum kabi voqealarni o`quvchilarga sodda tilda gavdalantirib ko`rsata oladigan nasrnavis bo`lsam edi, deb orzu qilardim. Sodda tilda yozish bobida Ahmad Mahdumdan o`tib ketish fikrida bo`ldim". Bu esa uning ustoziga chuqur hurmati va munosib shogird ekanligini ko`rsatadi².

Ahmad Donish Buxoro amirligi va unda hukmdor bo`lgan amirlarning tarixi masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ahmad Donishning "Buxoro mang'it amirlarining muxtasar tarixi" va boshqa bir qator asar mavjud. Donish «Risolat dar ilmi kurra» (globus haqida risola) deb nomlangan asar ham yozgan bo`lib unda globusning vazifasi uning ilm uchun ahamiyati undan amaliy foydalanshi haqida gap boradi.

¹ B.S.Turdiyev. "Ma'naviyatshunoslik" fanidan o'quv uslubiy majmua Buxoro -2017 38-bet

² T.E.Rahmonov ,M.Z.Orziyevning "Ikki tarixiy siymo" Buxoro 2015-yil 20-bet

Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoye”” (“Nodir voqealar”), “Risolai muxtasari az tarixi xonadoni mang‘itiya” (“Mang‘itlar xonadoni sultanati tarixi haqida qisqacha risola”; bu asar “Tarixiy risola” nomi bilan ham mashhur) kabi asarlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang‘itlar sulolasi tarixining qariyb 150 yillik davrini tasvirlaydi. Xususan, “Mang‘itlar xonadoni sultanati tarixi...” risolasida Buxoroda 1756 – 1910 yillarda hukmronlik qilgan mang‘it amirlari Muhammad Rahimxon, Amir Muhammad Doniyolbiy, Amir Shohmurod, Amir Haydar, Amir Husayn, Amir Umarxon, Amir Nasrullohxon, Amir Muzaffarxon, Amir Abdulahadxon faoliyati va shaxsiyati to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni keltiradi.

Sadriddin ayniy o’z asarlarda shunday so’zlarni keltirgan- “1964 yilning boshida taniqli ma’rifatparvar olim, yozuvchi Ahmad Donishning “Navodirul vaqoe” (“Nodir voqoealar”) asarini o’zbek tilida chop etish masalasi chiqib keldi. Bu asar XIX asrda Buxoro amirligida bo’lib o’tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, shuningdek, o’lkashunoslik, axloq, odob, madaniyat, san’at masalalariga bag’ishlangan bo’lib, fors tilida bitilgan, unda eski arab so’zlari ham ko’p ishlatilgan. Asar matnnini atoqli tarixchi Abdurahmon Hamroev va mashhur alloma Sog’uniy domla o’zbek tiliga tarjima qilganlar. Endigi vazifa o’zbek tilidagi matnni nashriyot va kitobxonlar talabi darajasida tahrir qilish, shu bilan birga asar mazmuniga putur yetkazmaslikdan iborat edi. Domla ana shu vazifani (mening oldin jurnalistika sohasida ishlaganimni hisobga olib bo’lsa kerak) menga topshirmoqchi ekanliklarini aytdilar. Bu, albatta, men uchun sharaflı edi. “Navodirul vaqoe” ni nashrga tayyorlash jarayonida ustoz bilan tez-tez uchrashadigan bo’ldim. Domla asar matnining nashrga tayyor qismini diqqat bilan o’qir va ko’pincha ayrim iboralar ustida to’xtalib, menga maslahatlar berardilar.¹

“Tarjimai ahvoli amironi Buxoro” nomli risola 1959 yanvaning 26-sentyabrida, Buxoro- muzey hodimi Ahmad Qosimzoda tashabbusi bilan, shahrimizda yashovchi fuqaro Muhiddinovdan sotib olingan. Kitob u kishiga bobosi, Saidahmad qozidan meros tariqasida qolgan. Qo’lyozmaning 92 va 99-

¹ S.Ayniy asarlari. 6-tom. Buxoro 2009-yil 48-bet.

betlarida qozining shaxsiy muhri bositgan. Risola muzeyning fondida 9823/11 raqami bilan saqlanmoqda. Asar tojik tilida arab grafikasida yozilgan. Asarning bu nusxasi muallifning dasxatidir. Kitobning o'lchovi 99 betdan iborat, yozushi nastaliq, qog'ozni va muqovosi oddiydir.

Ahmad Donish bu asarda Amir Doniyoldan boshlab to Amir Abdulahad podsholigi davrigacha bo'lga voqealarni bayon qiladi. Kitobning 93-betidan to 99-betigacha Ahmad Donish o'z esdaliklarini yozgan. Kitobning boshida qizil rangdagi qalam bilan tojik tilida "Tarixi amironi mang'itiya Buxoro Sharif, Asari Ahmad Donish" degan yozuv bor.¹

Buxoro amirligi ma'rifikat, fan va san'atning rivojlanishiga yo'l qo'yagan. Chet davlatlar, shu qatorda Rossiyadan keladigan fan yangiliklari to'grisidagi ma'lumotlar Buxoroning taraqqiyatvar ziyolilariga kiyinchilik bilan yetib kelardi. Buxoroda o'rta asrlarga xos tuzumning barcha salbiy hislatlari saqlanib qolgan edi. Ahmad Donish o'z kitoblarida Buxoroda ko'pgina ziyolilar amirning jabr qilishiga chidayolmasdan Buxoroni tark etib, qolganlari esa Buxorodan ketishga tayyor ekanligi yozilgan. Ahmad Donish xotin- qizlarni Rossiyaga o'xshab o'qimishli, aqlii va erkaklar bilan teng huquqli bo'lishlarini xohlar edi

O'z davrida ayrim mang'it amirlarining kaltabin siyosatini keskin tanqid qilgan, mang'itlar sulolasini to'g'risidagi tarixiy risolasida Amir Doniyol (Muhammad Doniyolbiy otaliq)dan boshlab to Amir Abdulahadgacha bo'lga sakkizta mang'it amirlari to'g'risida batafsil so'z yuritgan, rost so'z va haqiqatni har qanday sharoitda har qanday shaxsga nisbatan ayta olgan, adolatparvarlik g'oyalari va xolislik tamoyiliga o'z tarixiy asarlarida ham qat'iy rioya qilgan Ahmad Donishning Amir Nasrulloh haqidagi ushbu fikrlari va mulohazalari bizga juda keng ma'lumotlar beradi. Albatta, Ahmad Donishning bu so'zlari ko'pchilik tomonidan "qonxo'r va shafqatsiz" deb baholangan va hanuz baholanayotgan, hamda tavqi la'natdan hamon qutulolmayotgan Amir Nasrulloh shaxsiyatini o'rganish va tushunishda o'ziga xos ochqich vazifasini o'taydi. Ahmad Donishning mulohazalari Amir Nasrullohdek ziddiyatli va fojiali shaxs xarakterini tushunish va

¹ Sh.R.Avezova. "Ahmad Donishning merosyga doir". Buxoro-1995 15-bet

anglashni ancha osonlashtiradi. Asar shubhasiz Buxorodagi mang’itlar hukmronligi tarixini o’rganishda muhim manba hisoblanadi.

Ahmad Donish mang’it sulolasining amirlari to’g’risida achchiq va haqiqiy gaplarni aytgan. Masalan, amir Doniyol (1758-1785 yillar) to’g’risida quyidagi gaplarni yozgan: “Amir Doniyol hukmronlik qilgan vaqtida Buxoro Madrasa va machidlarning ko’prog’i namoz va ibodat joyi bo’lmasdan eshakarabalar, mashqoblar to’xtaydigan va chaykovchilarning bug’doy quyadigan joylariga aylandi. Ahmad Donish yozadiki, mang’itlar amirlik ishlarini boshqarishga tartib qilolmaganliklari sababli ular vaqf omboridan bug’doyni o’gurlab, vino ichish va harom ishlarini yo’lga ko’yanlar. Ularni so’raydigan va jazolanadigan odam bo’lman. Ular paytida mansabdor shaxslar o’rtasida nojo’ya ya ishlar ham ko’p bo’lgan”. Ular davrida boshqa tartibsizlik ham bo’lgan, masalan soliq turlari ham ko’p bo’lgan, misol qilib aytganda faqat nikoh qilish uchun hoziga 10 nuqra tanga berish kerak edi. Ahmad Donish yozadiki Qozi kalon lavozimida aroq ichuvchi Qozi Nizomiddin o’tirgan. Amir Muzaffar paytida xalqning dardini biladigan mansabdor shaxs bo’lman.

Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarini aniqlashda uning “Tarjamai ahvoli amironi Buxoro” (“Buxoro amirlarining tarjimai xollari”). Asarda Buxoro amirlarning olib borgan siyosatlari haqida ham ko’plab ma’lumotlarni aytib o’tgan.

Podshohlar, sultonlar, amirlar, xoqonlar, shahanshoh-imператорлар о’зларига nomaqbul, ammo obro’ va nufuzi baland kishilarni saroydan chetlashtirish maqsadida ularni mamlakatning poytaxtdan olis viloyatidagi u yoki bu amalgalayinlaganlar. Bu jihatdan, Sulton Husayin Boyqaro tomonidan Alisher Navoiyning Astrobodga hokim qilib yuborilganligini eslash kifoyadir. Xuddi shunday munosabat Amir Muzaffar hamda Ahmad Donish o’rtasida ham yuz berdi. Tabiiyki amirning bunday yo’l tutishi ma’rifatparvar adibni Buxoro adabiy muhiti, yoru do’stlari qurshovidan, ularning qizg’in suhbatlaridan, she’rxonlik anjumanlaridan mahrum qildi. Tanholik, g’amginlik, ma’yuslik, maslakdoshlaridan uzoqlashish Donishni ruhan va jismonaya ezdi, azobda qoldirdi:” Ayni shu

vaqtarda musavvid (yozuvchi) oqshomlari o'zini yomon sezib, eski kasali qo'zg'algan paytda Bedil ruboiylarini mutolaa qilishdan qoniqmay ularni kitobat qilish bilan ko'ngliga taskin berardi toki ma'no izlashga moyil tabiat tasalli xosil qilsin¹.

Ahmad Donish Rossiyaning ilmu-fanini rivojlanishini chet davlatlar matbuotidan o'qib turib amirlik tuzumi mansabdorlarining ilmu-fan rivojlanishiga to'skinlik qilayotganliklarini tanqid qilar edi. Ahmad Donish amir Muzaffarga yozadiki, Buxoroda yashaydigan va ijod qiladigan olimlar, shoirlar, san'at arboblari amirlikning gavhlardir, ularni adolatli amir qo'llashi, ularga yordam berishi kerak. Ahmad Donish olim na marifatparvar zamondoshlariga g'amxo'rlik qilishga o'z hissasini qo'shishgan, bu esa jamiyat rivojlanishiga ko'p foyda keltirgan².

Podshoh, podshohlikdan tutgan maqsadi nima ekanligini va uning atrofidagi o'rda xizmatchilarining talablarini nazarga olib ish olib borishi kerakdir. Sulton talabining eng ulug'lari esa viloyatni mustahkamlash, o'z davlatidan foydalanish, o'lgach dunyoda yaxshi nom qoldirishdir. Bu ishlar esa xalqsiz va askarsiz bo'lmaydi. Mamlakatdagi davlatning muhim ishlarini bajarishda ish ko'rgan, tajriba o'tkazgan odamlar kerakdir. Shunday bo'lganda podshohning qo'li bir oz bo'lsa ham bo'shaydi, o'z davlatidan bahra topa oladi. Xazinalar molga to'lib, xayr-ehson eshigi ochilar ekan, unday podshohning yaxshilikda nomi chiqadi. Hamma ham unga xizmat qilishni o'ziga sharaf deb biladi. Ammo ularda xizmatkorlarining asl talabi esa qo'lga boylik kiritish, yer-suv ko'paytirib obro'qozonish, xalq ichida yurt boshlig'i bo'lish, xullas — o'zlarining orzulariga yetishdan iboratdir. Askarlar esa ma'raka va maydonlarda jonbozlik qilib, ko'kraklarini o'qqa tutadilar. Buning sababi mavjud naqd foydani qo'ldan chiqarmaslikdir. Endi bu so'zlardan ma'lum bo'ldiki, sultonlar o'z atroflaridagi xizmatchilarini, askarlarini tinchlantirib ularning dunyoviy turmushlarini yaxshilamagunlaricha o'zları ham saltanat va davlatlarida rohatga erisha olmas

¹ Sh.Shukurov. "Marifatparvar adibning hayoti haqida" //Buxoro mayjlari" 2006 yil 1-son 12-bet

² Rahmon Muiniy. "Ahmad Donish hayoti haqida". Buxoro 2007-yil 8-bet

ekanlar. Shunday bo'lgach, podshohlar safarda, hamma vaqt xalq tinchligini izlovchi bo'lsinlar. Xalq tinchlanmaguncha o'zlariga rohatni harom deb bilsinlar¹. Asarda Ahmad Donish o`ziningadolatparvar hukmdor haqidagi qarashlari bilan birga mang'it amirlarini tanqid qiluvchi fikrlarni ham bildirib, hukmdorlarning cheklanmagan hokimiyatiga qarshi chiqqan. Uning fikricha, "Haqiqiy hukmdor odobli, e'tiborli, kamtar, yekishda, ovqatlanishda va hayotda parhezkor bo`lishi darkor" ²degan.

Ahmad Donishning fikrlaridan ma'lumki, u o`z asarini yaratishda o`z davrining boshqa tarixnavislaridan farqli o`laroq xolisona, tanqidiy yondashgan. Asar o`zi yozilgan davrdan ancha kechroq tarix ilmi ommasiga ma'lum bo`lgan. Unga qadar esa asar haqidagi ma'lumotni biror manbada uchratmaymiz. Hattoki, Ahmad Donishning eng yaqin shogirdi Sadriddin Ayniy ham ushbu asar haqida ma'lumot bermagan. Faqatgina 1936-yilda u E.E.Bertels birinchilardan bo`lib, Ahmad Donishning noma'lum asarining qo`lyozmasini aniqlaganligini ma'lum qilib, uni "Risola" deb nomlaydi. 1946-yilda S.U.Ulug'zoda asarning qisqacha mazmunini xalqqa ma'lum qildi. Ushbu asarning boshqa qo`lyozma nusxalari ham mavjud. 1959-yilda Hodizoda tomonidan tayyorlangan tojik tilidagi birinchi nusxasi chop etildi. Ushbu asar qisqartmalar bilan berilgan. 1960-yilda A.M.Mirzoyev tomonidan asarning 5 ta qo`lyozma nusxasi asosida tanqidiy matni nashrdan chiqdi. Ikkinci nashr birinchi nashridan hajm jihatidan ancha farq qiladi. Tanqidiy matnda bir qator yangi qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. Masalan, kirish qismi Ahmad Donishning tarixchi sifatidagi faoliyatini o`rganishga ko`mak beradi³.

Ahmad Donish asarlarda ko'p marotaba aholini ilimli bo'lishini takidlاب o'tgan. Mamlakat har sohada bilimli aholi ishlashini istagan. Yoshlarni bilim olishni ilm o'rganishlari kerakligi haqida kuyinib gapiradi. Kitobxonlik madaniyati haqida gap ketganda Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek "Ma'naviy hayotimizda muhim voqeа bo'lgan ana shunday loyihalar haqida gapirganda,

² A.Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 45-b.

³ J.G'ulomov. "Ahmad Donishning ilmiy merosi". Buxoro-2014 yil 37-bet

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlari boshlanganini alohida qayd etish zarur. Shular qatorida buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma’rifiy yo‘nalishlarni o‘rganish bo‘yicha maxsus maktablar tashkil etildi. Albatta, bizning bu ishlarimiz chuqur ilmiy va amaliy asoslarga ega. Ma’lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebahos, butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to‘liq o‘rganilmagan, ular olimlar va o‘z o‘quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o‘rtaga qo‘yayotgan juda ko‘p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo‘lida birlashishga da’vat etadigan teran ma’noli fikr va g‘oyalar bugun ham o‘z qimmati va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo‘laturib, ularni har tomonlama o‘qish-o‘rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo‘yicha, yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak”¹.

“Tarjamai ahvoli amironi Buxoro” (“Buxoro amirlarining tarjimai xollari”) asarda Rossiyaga elchilik safarlari haqida ham aytib o`tilgan. Qushbegi Ostonaql boshchiligidagi elchilar Rossiyada bo`lishadi va ular o`zlari bilan birga rus podshosiga amir tomonidan yozilgan iltimosnomani ham olib borishadi. Bu voqealarni o‘z ko`zi bilan ko`rgan muallif iltimosnomasi mantnini asarida ko`rsatadi. “Oq podsho- sizdan iltimosimiz shuki, men taxtga yaqinda o`tirganman.

¹ Sh.Mirziyoyev.Oliy Majlisga Murojaatnomasi T.: “Adolat” 2017-y 12-b.

Mamlakat ishlarini yaxshiroq tushunib o`rganish uchun sharoit yaratib bering. Buxoroda suv tanqisligi bois dehqonlar ahvoli og'ir, Amudaryo va Sirdaryodan suv olib kelish kerak. Buning uchun yetarlicha zamonaviy texnologiyalar va harbiy sohada qo`shin askarlarning jang mahorati pastligi bois harbiylar kelib o`rgatib ketsin" kabi fikrlar bildirilgan edi. Tabiiyki, bu iltimosnoma shaklidagi xat rus hukmron doiralari tomonidan xursandchilik bilan kutib olindi¹.

Ahmad Donish Buxoro amirligidagi hokimlar qozilar, beklar ko'ngillari istagan hamma narsani o'zlariniki qilib olishlari xalqning risqini hech tab tortmasdan o'lashtirganlari haqida ham yozgan. U yana hukmdor - mulkdorlar orasida ichkilikkbozlik, buzuqlik, qimorbozlik qattiq turib qoralagan. Kambag'al kishilar esa o'zlarini qayoqqa urishlarini bilmasdilari, amir va vazirlar ruxoni ulamolar va amaddor hammasi bir to'da kallakesarlar bo'lib, bir- birlarining qo'llariga suv quyishlarini takidlaydi. Donishning fikriga ko'ra, "Davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog'i zarur. Biz dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlar kezib o'rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, uning hamma qit'alari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz"- deb yozgan edi Donish. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma'rifatli, odil va o'z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog'i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o'zini fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tassavvur qilmog'i lozim. Bu adolatni ta'minlashga imkon yaratadi". "Mamlakatni idora qilishda,-deydi Donish,- hukmdor muhim davlat muammolarini o'z atrofidagi maslahatchilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo'lishi kerak va ularning fikri bilan hisoblashishi shart, chunki ko'pchilikning aqli, bir kishining aqlidan ortiqroqdir"².

Ahmad Donish "Navodir ul vaqoe" asarida oila qurish va uni saqlash uchun ko'p harakat qilish kerakligi, er-xotin munosabtlarida nikoh shartlarining bajarilishi azoblarsiz, qiyinchilik afsus nadomadlarsiz bo'lmasligini ta'kidlaydi. U

¹ Sh.Tosheva."Ahmad Donish va uning tarixiy risolasi".// Buxoro mavjlar. Buxoro, 2007.№3, -B.37.

² B.S.Turdiyev."Ma'naviyatshunoslik" fanidan o'quv uslubiy majmua. Buxoro -2017 36-bet

yigitlarni oila qurmasdan oldinoq unga ruhiy, aqliy tayyorgarlik ko'rishga chaqiradi. Oila nikoh asosida qurilar ekan aql bilan tanlangan jufti halol, yaxshi xotin-bu yordamchi do'st ekanligi, aqlli erkak, aql bilan o'zaro maslahat va rozilik bilan uy xo'jaligini yurgizishi kerakligini uqtiradi. Oilali erkakning yillik daromadi 500-1000 dirhamgacha bo'lishi, uning ilmi va hunari bo'lib uning orqasida oila tebratishi shartligi, shaxsiy uyi, mulki va xo'jaligi, nuqsonlardan xoli tashqi go'zalligi, jismoniy barkmolligi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Ahmad Donish erkak, arning oiladagi, xotinning er oldidagi majburiyatlari haqida, qaynonaning oiladagi o'rni haqida qiziqarli, purhikmat fikrlarni keltiradi. Donish asarida xotinning er oldidagi majburiyatlari ko'rsatib berilgan. Bular quyidagilar:

- o'z eri haqida faqat yaxshi gapirishi kerak;
- turmush o'rtog'inining kamchiligin yashirishi kerak;
- o'zaro munosabatlaridagi gaplar, ikir-chikir munosabatlarni sir tutishi kerak;
- erining istaklarini bajarishi kerak;
- erining xursandchiligidagi sherik bo'lishi kerak
- boyligini mulkini asrashi kerak
- itoatli, rahmdil, mehribon, qanoatli bo'lishi lozim.

Donishmand har doim aholi yashash sharoiti, jamiyat taraqqiyoti haqida qayg'urgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov jamiyat taraqqiyotida olimlarning o'rni masalasiga to'xtalib o'tar bekan, "Hozirgi har bir olim, ayniqsa, jamiyatshunos olim o'z ilmiy faoliyatini respublika muammolariga, o'z xalqi va butun mamlakatimiz tarixiga muofiqlashtirishi lozim. Ravshanki, bunday intilish jamiyatshunos olimlar ilmiy va ijtimoiy faoliyatining birligi xarekterini, ularning respublika ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini belgilab berishi kerak"¹, deb ta'kidlash bilan birga, ilmiy xodimlar o'z fikrlarini erkin, ma'suliyat bialn ifoda etishlari uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlar bajarish uchun davlat buyurtmalarni tanlov sistemasini shakillantirish ham bayon etdi. Ahmad Donish asosan asarlarni yaratishda xalq manfaatlarni ko'zlab yozishga harakat qilgan.

¹ I.Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida .-T.: "O'zbekiston" HMIY, 2011-yil.-89-bet

Ahmad Donish turli tanqid va tazyiqlardan qo`rqmay ushbu ma`lumotlarni keltirishi uning mazkur davrdagi tarixni o`z holicha bayon qilganligi bilan xarakterlanadi. Mustaqillik sharofati tufayli bu kabi yurtdoshlarimizning o`lmas tarixiy merosi xalqimizga qaytarildi va tariximizning noma`lum sahifalari ochildi. Bizning vazifamiz esa bu kabi asarlarni tadqiq etib mamlakatimiz tarixini ochilmagan sahifalarni o`rganishdan iboratdir.

Mutafakkir “Navodir ul vaqoe” asarida asosan adolatli hokimiyat o`rnatish, dehqonchilikni rivojlantirish, hunarmandlarni qo`llab-quvvatlash, fan yutuqlaridan bahramand bo`lish, olimlarni tayyorlash Vatan va xalqni qoloqlikdan xalos etadi, deb fikr yuritadi, barcha kishilar ma`rifatli bo`lishini istaydi. U kar bir kishining qorni to`q, usti but o`zi bilimli bo`lishini va shu bilan birga, Buxoroga kelgan qar qanday chet elliklarning savollariga qiyalmay javob bera olishini orzu qiladi. “Biz dunyoni gullatib-yashnatish, daryo-dengizlarni kezib o`rganish, yer osti boyliklarini topish, yerning hamma qit`alari, u yerdagi aholini bilish uchun tug`ilganmiz”, — degan donishmandning ijtimoiy g`oyalari o`z davri uchun muhim ahamiyatga ega. Donish mavjud iqtisodiy-siyosiy tuzumning taraqqiyotga g`ov bo`lib qolganligini anglab yetadi va bu g`ovni olib tashlash yo'llarini qidiradi.

Ochko`zlik, mol-dunyoga ochlik yoli bilan topilgan boylik bolalarning axloqiy qiyofasiga salbiy ta`sir etadi. Shuning uchun Donish bunday hissiyotga berilishga yo`l qo`ymaslikni tavsiya etadi, mansabga intilishni qoralaydi¹.

Insonparvarlik ruhi bilan yo`g`rilgan islohotlar xalqimiz turmushining yanada yuksalishi, mamlakatimiz obodligi va taraqqiyotini ta`minlash, Vatanimizning dunyo hamjamiyatida obro`-e'tiborini yuksaltirish va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda yuksak samaralar berishi aniq.

¹ Z.Ahmedova. “Tafakkur daryosiga cho`msang” Jamiyat boshqaruvi jurnali 2009-yil 2-son 38-bet.

2.2. Ahmad Donishning asarlarida huquqiy-siyosiy masalalarining yortilganligi.

Davlatchilik tushunchasi va uning tarixi yurtimiz xalqlari singari qadimiydir. Vatanimizning davlat arboblari, siyosatshunos, jamiyatshunos olimlari, faylasuf - huquqshunoslari va tarixchilar davlatchilik tamoyillarini nazariy - ilmiy jihatdan yaratib, boyitib kelganlar, uning amaliyoti to'g'risida juda qimmatli bo'lган davlatchilik ustunlari sifatidagi tavsiyalarni yaratganlar.

Adolatli, hukmdor, xalq manfaatlari himoyachisi bo'lishning jahonda eng namunaviy timsollarini yaratganlar. Bular A.Forobiyning "Fozil shahar odamlari", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temurning "Tuzuklari"da, Alisher Navoiyning odil shohlar to'g'risidagi orzulari bayon etilgan, o'lmas asarlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston tarixi shundan guvohlik beradiki, davlatchilik tushunchasi va nazariyasini yaratish, boyitish, uni eng yuksak darajaga ko'tarish tamoyili hamma zamonlarda izchil davom etgan. Davlatchilikning nazariy asoslarini barcha davrlarda o'z zamonasiga mos holda rivojlanib borgan.

Ahmad Donish ham Farobi va Nizomulmulkdek, Amir Temur va A.Navoiy singari odil shoh vaadolatparvar hukmdor qanday bo'lishi kerakligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan bo'lsa-da, uning "Madaniyat va o'zaro ko'maklashish tartibi haqidagi risola"si davlatchilik va uning tamoyillariga, oliy hukmdorning qanday xislatlar egasi bo'lishi haqida yozilgan maxsus asardir.

Podshohni Ahmad Donish aholining xizmatkori deb hisoblaydi: "Darhaqiqat, podshoh aholining mardikori va xizmatkoridir, chunonchi agar o'g'rilar va yovuzlar ko'payib, ularning xavfi kuchaysa, qishloq aholisi biron shaxsni qorovullik va posbonlik xizmatiga yollaydi, uning kechalari jonbozlik qilib, tun bo'yi uxlamay, dushman xavfini daf etgani uchun unga oziq-ovqat beradi, xuddi shunga o'xhash aholi, bizga qarashgin, suvimizni yetkaz, yo'llarimizni qaroqchilardan tozala, toki biz farog'atda bo'laylik, agar sen beg'am o'tirsang, bizga farog'at bo'lmaydi", deb podshohga o'lpon, xiroj, zakot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagilarni keltirib o'tdilar: "Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda. Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o'tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug'ullanmoqda"¹.

Podshoh davlat arboblarini, sultanat ustunlarini yashirinchalashib, ularning yaxshi-yomon ishlaridan hamda tirikchilik va ahvollaridan xabardor bo'lsin. Chunki bilib bo'lmaydi, kelishmagan ishlardan biror narsa qilib yurgan bo'lsalar, yana u yashirin parda ostida qolmasin.

Sulton atrofdan kelgan vakillar va elchilarni o'ziga yarasha hurmat qilsin. Elchi yuborgan podshohga har qancha dushmanligi bo'lsa ham uning nomi aytilgan choqda odob va hurmat bilan tilga olsin. Bu ish esa har ikki tomonning totuvlashishiga sabab bo'ladi. Podshoh chet mamlakatga elchi yubormoqchi bo'lsa, uning yuboradigan elchisi teran fikrli, o'tkir tilli, shirin so'zli, yumshoq xulqli bo'lsin. Buning ustiga har so'zi o'z o'mnida so'zlaydigan bo'lsin. Elchingin borayotgan joyidagi xalqning diniga va rasmi-odatlariga tushungan kishi bo'lishi shartdir. Chunki elchilar ularni yuborgan podshohlarining tillari kabidirlar. Tilning yumshoqligi eshitganlar dillarining yumshashiga sabab bo'ladi².

Ahmad Donishning ushbu fikrlari o'sha zamon va sharoit uchun ilg'or fikrlar edi. Ahmad Donish birinchilardan bo`lib davlat qonunlarini ilohiyot bilan emas, aql va tajriba bilan bog'laydi. U "Davlat va aql bir-biridan ajralmas. Agar davlat

¹Sh.Mirziyoyev. "Oliy Majlisga Murojaatnomasi" T.: "Adolat" 2018-yil 12-b.

² A.Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 45-bet.

qonun-qoidalari aql tamoyillariga mos holda tuzilmasa, bunday davlatdan yaxshilik kutib bo`lmaydi" deb ham ta`kidlaydi.

Mazkur davrda Buxoroda davlat rahbari amir bo'lib, u cheklanmagan hokimiyat va huquqlarga ega edi. Buxoro amiri o'z qo'li ostidagi barchaning ham mulkiy, ham jismoniy, ham ma`naviy xo'jasini edi. Ahmad Donish o'z asarlarida davlat boshqaruvi tizimi masalalari xususida qarash va fikrlarini bildiradi. U davlatni boshqarishni bir kishiga topshirib bo`lmaydi, degan xulosaga keladi. "Sulton bo`lsin, - deydi Donish, - albatta har bir tabaqadan vakili bo`lsin, har bir kattaroq, muhimroq ish uchun har qavmda yig'ilish qilsin. Dorulmashvarat tayinlasin, unga munosib vakil bo`lsin. Har kuni tabaqalar vakillari to`planib , iqtisodiyoti,mamlakat ishlarni obodonchiligi haqida yig'ilish qilsinlar. Har bir ishning yaxshi yomon tomonlarini maslahatlashib, bir fikrga kelsinlar".

Ahmad Donish o'z asarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar dasturi bilan birgalikda harbiy-strategik mulohazalarni ham bayon etadi. Jumladan, u amirga ushbu strategik va tashkiliy maslahatlarni beradi:

- Dushmanni chalg'itish uchun sulton boshqa tomonga hujum qilib, haqiqiy raqibga qarshi urushga tayyor bo'lib turmog'i lozim;
- Urushgacha kerakli miqdorda qurol-yaroq tayyorlashi kerak. Askarlar barchasi mukofotlanib, yana mukofotlanishi kafolatlanadi;
- O'z vaqtida jangchilar ehtiyoji ta'minlanadi;
- Agar bir daqiqa ham armiyada diqqatini chalg'itmasligi shart;
- Sarkardalar harbiy sinovlardan o'tgan bo'lishi kerak;
- Amir har kuni dushman ahvoli haqida ma'lumot olishi kerak;
- Urush vaqtida unchalik ko'p bo'limgan aholi g'alabaga kafolat bera olmaydi;
- Intizom g'alaba garovidir;
- Shamol va do'l vaqtlarida harbiy harakatlar olib borish ma'qul emas;

- Dushmanga oxirigacha dam bermaslik zarur. Urush oxirida armiya darrov tarqatib yuborilmaydi¹.

Ahmad Donish bildirgan ushbu fikrlar Kaykovusning "Qobusnomा" asaridagi fikrlarga mos keladi. Xususan "Har ish qilsang, aql farmoni bila qilgilib va aqldan bemaslahat ish qilmagil. Nedinkim, podshohning vazirlari aqldir. Hamisha lutf va karamni odat qilgilib lekin siyosatlik bo`lgil" - degan fikrlarni aytadi. Ushbu ikki mutafakkirning ham fikrlari bugungi zamonamiz uchun xos bo`lgan asosiy masalalar hisoblanadi. Ahmad Donish o`zining ushbu g`oyalari orqali davlat boshqaruv aparatining samarali shaklini joriy etish kerakligini ta`kidlagan.

Ahmad Donish asarlarida hukmdorlar uchun o`ta muhim bo`lgan sifatlar haqida ham to`xtalib, quyidagi sifatlar ular uchun zarur deb aytadi:

1. "Hamma yaxshiliklarning negizi aqldandur" degan fikrni bildirib, davlat boshqaruvlari kuchli aql sohiblari bo`lishi kerak deb qayd etadi.
2. "Podshoh bir buloqqa o`xshaydi. Boshqalar esa shu buloqdan chiqqan ariqchalaridir. Agar shu buloqning suvi shirin bo`lsa, undan chiqqan ariqchalarning suvi shirin bo`ladi. Agar achchiq bo`lsa ular ham achchiq. Shunga o`xshash xalq ham har ishda podshohlarga qaraydir"- degan fikrni bildiradi. Ya`ni bu bilan xalqni boshqaradigan shaxs boshqalarga o`rnak bo`ladigan, adl-ehsonlik, yaxshi axloqli bo`lishi lozim, degan ma`no uqtirilgan.
3. "Podshoh faqat o`ziningadolatliligi bilan qanoat qilmasin, butun mamlakatning arboblari va xizmatchilarini unga undasin"²- ya`ni davlat boshlig'i bo`lgan shaxs faqat qonunlar yaratibgina qolmay, balki uning ijrosini nazorat qilish, barcha amallarini unga bo`ysunishga undashi lozim deyiladi.

Ahmad Donish jamiyat taraqqiyotida muhim sanalgan 5 asosni sanab o`tadi. "Birinchidan, kuchli hamda odil podshoh bo`lishi kerak. Ikkinchidan, amaldorlar va hokimlar insofli bo`lishlari lozim. Uchinchidan, shaharda yetarli hoziq va tabiblar bo`lishi kerak. To`rtinchidan, shahar xalqi musofirparvar va g`aribsevar

¹ J.G'ulomov. "Ahmad Donishning ilmiy merosi". Buxoro-2014 yil 44-bet

² S.Raupov. "Ahmad Donish va siyosiy yetakchilik muammosi". /Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyatparvari. Buxoro, 2007.-B.189-191.

bo`lishi kerak. Beshinchidan, dunyodan chiqqan katta kichik ariqlardan oqqan suvlar mamlakat dehqonchiligi uchun yetarli darajada mo`l bo`lishi kerak”.

Ahmad Donish Buxoro amirligining har sohadagi kamchililarni ochib berishga juda ko`p harakat qilgan. Ahmad Donish yashagan yillar amirning qattiq zulm o`rnatgan vaqtি bo`lgan.

Ahmad Donish “Navodir ul vaqoe” asarida shun so`zlarni keltiradi -“Podshohning xotirasi tiniq ko`zguga o`xshaydi. Har kimning o`zidagi bor qobiliyatining naqshi uning ko`zgusida ko`rinadi. Mana shunga ko`ra odamlarning qaysi biri qaysi ishga yararligini bila oladi. Shunday bo`lgach, har ishni o`z bajaruvchisiga topshiradi”¹.

Ahmad Donish podshohning adiblar, shoirlar, tarixchilarni mamlakat taraqqiyoti uchun tarbiya qilishi lozimligi haqida ham fikrlar keltirgan. Chunki shuni bilamizki podshohlardan qoladigan meros ularning yaxshi nomlari, u qanchalik ko`p qolsa, saltanat xonadonlariga shunchalik foydalidir. Yana, shunga o`xhash bir qancha ma`lumotlar kletiradi. Davlat xizmatini ularga topshirishda yoki ularga mansab berishda yurish-turishi xalqda yoqqan, ish sohasida o`zini tanitgan layoqatli kishilarga ishonish mumkin. Yana, podshohning tili, uning so`zi ham bir bo`lishi kerak. Chunki til dilning xabarchisidir. Yurak esa do`stlik yoki dushmanlikning chiqadigan. Shunday qilib, podshoh ikki yuzli bo`lsa, xalq ham ikki yuzli bo`ladi. Bundan chiqadigan natija, do`stlik bo`linib, dushmanlar birlashadilar va shunday bo`lib oxiri davlat qo`ldan ketadi. Xalq o`z podshosiga ishonmay qo`yadi. Davlatda bo`linish yuz beradi.

Mamlakat uchun foydali bir ish podshoh hayoliga kelsa, fikr tug`ilsa uni amalga oshirishga darhol kirishmasdan chuqur tahlil qilishi kerak. Avval o`zi shu ish ustida fikrlab, xalq uchun foya zararini tahlil qilishi kerak, so`ngra uni mashvaratga(kengashga) qo`yishi mumkin. Agarda uni kengashda ko`pchilik foydali deb hisoblasa, bismillo deb bu ishni boshlash mumkin.

Ahmad Donishning hukmdorlik odobi va rahbarlik mas`uliyati haqidagi qarashlari yuqorida ta'kidlaganimiz "Risolai tamaddun dar nazmi tamaddun va

¹ A.Donish. “Navodir ul vaqoe” O’zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 49-bet.

taovun" nomli risolasida bayon etilgan. Bunda Ahmad Donish "hukmdor bo'lish - dunyoda eng faxrli ishlardan biri. Hukmdor o'zining barcha vazifalarini ilm va tajribaga tayangan holdagina uddalay olishi mumkin", - deya ta'kidlaydi. Shu bilan birga, alloma "Navodir ul vaqoe" asarida adolatli podshoh bo'lish uchun quyidagi o'n shart asosida ish olib borish kerakligini aytib o'tgan.

1. Shoh o'z fuqarosining ishini ko'rib chiqayotganda o'zini o'sha fuqaroning o'rniga qo'yishi kerak. Uni esa o'z o'rnida tasavvur qilishi kerak. Har ikkala holatda qabul qilingan qaror ma'qul bo'ladi. Hukmdor o'zi uchun maqbul bo'limgan narsa, boshqalar uchun ham nomaqbul hisoblanishi kerak. Aks holda u xoinlik qilgan bo'ladi;
2. Shoh uning huzuriga u yoki bu tilak bilan kelgan kishilarni hech qachon kutib turishga majbur qilmasligi kerak. Chunki fuqarolarning tilaklari boshqa barcha ishlardan ustun turadi;
3. Kamtarlik bo'lmasa, adolat bo'lmaydi. Dabdabali kiyinish va ovqatlanishdan saqlanish kerak;
4. Shoh hukm e'lon qilayotganda muloyim bo'lishi kerak va qo'polikka hech qanday asos bo'lmasligi shart. Har bir ishni ko'rib chiqayotganda ish yuzasidan barcha hujjatlar va dalillar chuqur tekshirib chiqilishi lozim. Ko'rib chiqilayotgan ishga doir guvohlarning ko'rsatmalarini sabr-toqat bilan eshitmoq darkor. Podshoh kuchsiz va qashshoh odamlar suhbatlashishdan uyalmasligi kerak;
5. Shoh odamlar xohish-istiklaridan kelib chiqib, shariat qonunlariga zid bo'lgan harakat qilmasligi kerak. Shu bilan birga hukm e'lon qilinayotganda hukmdor bo'shliq, loqaydlik va ikkiyuzlamachilik qilmasligi shart. Agar hukmdor qarori adolatli bo'lsa, hukmdor norozi tomonning qaroridan qo'rmasligi lozim;
6. Shoh g'ururi, balandparvozligi bilan o'z fuqarolarini o'zidan yiroqlashtirmasligi kerak. Aksincha, u otalarcha g'amxo'rliги va mehribonligi bilan o'z fuqarolarining mehrini qozonishi kerak;
7. Shoh mamlakat va hukumatning xavf-xatarga yo'liqishini unutmasligi kerak. Mamlakat hukmdori bo'lgan shaxs har qanday masalani hal qilishda haqiqat

yo'lini tanlab olishi kerak, masala o'ta muhimmi yoki unchalik muhim emasmi, bundan qat'iy nazar, haqiqat va adolat nuqtai nazaridan ish tutishi kerak;

8. Shoh hamma vaqt ma'naviy pok olimlar bilan hamsuhbat bo'lisi va ularning maslahatlariga qulq tutishi kerak;

9. Shoh mansabdor shaxslarning xoinligi va fuqarolarni siuvuga olishlaridan boxabar bo'lisi darkor. U hokimiyatni inson qiyofasidagi bo'rilariga ishonib topshirmasligi kerak;

10. Shoh dimoqadorlik, takabburlik, manmanlik, bosar-tusarini bilmaslikdan saqlanishi kerak. U muloyim, kamtarin bo'lisi lozim. Lekin haddan oshiq ko'ngilchan, bosh bo'lmasligi kerak.¹

Shuningdek Ahmad Donish Podshohlar o'z amirlari bilan qanday muomalada bo'lishlari, yurt ustida turgan amaldor va hokimlarning podshohlarga qilgan tansiq va tortiqlari haqida ham fikrlarni "Navodir ul vaqoe" asarida keltirib o'tgan. Ma'lumki, davlat va sultanatning qurilishi uchun fuqaro jamiyati va viloyatlar tuzilishi kerak. Buning uchun mamlakat obodligi hamda yetarli askarning bo'lisi lozim chunki bularsiz hech bir davlatning saqlanishi mumkin emasdir. Askarsiz podshoh bo'lmaydi, xazinasiz askar yashay olmaydi. Xalq ko'payib obodonlik bo'lmasa, xazina boyligi ko'paymaydi. Mamlakat obod bo'limguncha fuqaro jamiyati bo'lmaydi. Mamlakatning obodonligi esa tog'larning yaqinligi, daryo suvlarining yetarlik darajada uzilmay oqib turishi hamda buloq va quduq suvlarining ko'payishi bilan bo'ladi. Insoniyat yashaydigan har qaysi shaharda quyidagi besh narsa bo'lisi kerakli bizga uqtirib o'tishga harakat qilgan. Va quyidagilarni asarda yoritib bergen:

Birinchidan, kuchli hamda odil podshoh bo'lisi kerak. Chunki podshoh zolim yoki kuchsiz, zaif bo'lsa, mamlakatda yomonlar ko'payib, qo'shni hukumatlar uning yeriga tajovuz qila boshlaydilar. Unday joydan tinchlik ko'tariladi.

Ikkinchidan, amaldorlar va hokimlar insoflik bo'lishlari lozim. Agarda bular zolim bo'lsalar, podshohlari odil bo'lsa ham, yurt xarob bo'lib, qishloq xalqi jondan

¹ A.Donish. "Navodir ul vaqoe". O'zbekiston SSR Fan nashriyoti. 1964-y 45-bet.

to'yib vayrongarchilikka uchraydi. Podshoh bularni bila turib sukut qilgan bo'lsa, u holda o'zi ham zolimlarga qo'shilgan bo'ladi.

Uchinchidan, har bir shaharda etarli hoziq tabiblar bo'lishi kerak. Agar shahar bulardan holi bo'lsa, ko'p odamlar, ichki va tashqi sabablarga ko'ra, betob bo'lib qaloq bo'ladilar. Bunday bo'lgach, jamiyat buziladi.

To'rtinchidan, shahar xalqi musofirparvar va g'aribsevar bo'lishi kerak. Agar bular ichida mehmondo'st, xayri-ehsonlik kishilar ko'p bo'lsa, uzoq va yaqindan keluvchilarga osonlik tug'ilib jamiyat ko'payadi. Agar shahar xalqining musofirsevmas va non bermaslikda nomi chiqqan bo'lsa, unday shaharga chetdan keluvchilar bo'lmay, eng so'ng bunday shaharning nomi yo'qoladi.

Beshinchidan, daryodan chiqqan katta-kichik ariqlardan oqqan suvlar mamlakat dehqonchiligi uchun yetarlik darajada mo'l bo'lishi kerak. Hayot olamida eng kerakli zarur narsa ham shudir. Har qanday shahar bo'lsa ham, agarda suvi yetarlik bo'lmas ekan, ko'p o'tmay unday shaharning xarob bo'lishi shubxasizdir. Davlat sultanati taxt ustida o'ltirgan bir shaxs kabidir. Bu taxtning qurilishi besh narsasiz bolishi mumkin emasdur¹. Agar podshoh teran fikrli, etuk ko'zli bo'lsa, bunday odamlarni ayttirmasdan o'zi tanib oladi; o'rtaqa kishi qo'yib arzi dodini aytish xijolatidan ularni qutqazgan bo'ladi. Hamda har ish o'z egasiga topshirilib, omonat o'z joyiga yetadi. Shuning natijasida mamlakat ishlari butunlay tartibga solinadi. Chunki himmatli kishilar mansabni so'rab olmaydilar.

Podshoh uchun zarur bo'lган ishlardan yana biri askarlarni doim tayyor qilib turishi, podshoh ular ahvolini hamma vaqt tekshirib turshi kerak. Mamlakat atrofida dushman yo'q bo'lган taqdirda, o'zini askarga tarqatib yubormasligi shart. Kundalik ehtiyojsizligiga qarab keyingi muhtojligini unutmaslik kerak. Kutilmagan joydan dushman bosh ko'tarishi mumkin. Unday choqda tarqalgan askarni yig'ib dushmanga qarshi chiqib bo'lmaydi. Buni A.Donish tajribalari davomida yaxshi anlab yetgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asrning boshida Buxoro amirligi iqtisodiy hamda siyosiy qoloqlikka uchragan. Shu paytda aholining bir xil uylarida

¹ A.Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 47-bet,

arzon kerosin yoqilg'isi bilan yonadigan lampa bo'lмаган. Amirlik aholisining ko'п qismi savodsiz bo'lган. Bunday jamiyatning qoloqligi Ahmad Donishga umuman yoqmas edi. Buni har doim tanqid qilgan. Chunki xalqni bilimli qilish uchun sharoit umuman yaratilmagan. Amirlar xalqini savodli bo'lib o'z haq-huquqlarni talab qilishlarni xoxlamas edilar. Fuqarolarning yashash sharoitlari, aholining bilim salohiyatiga umuman e'tibor berilmagan. Shu sababli davlat qoqloqlashib qolavergan. Yangilikka umuman intilish ko'zga tashlanmagan bunga butun jamiyatni boshqarayotgan ochko'z amaldorlar bilan amirni o'zi ham xalqqa qarshi bo'lган. Bu hol Ahmad Donishga azob berib kelgan. Ahmad Donish bilim xususida ham to'xtalib, uni yo'lni yorituvchi mash'alga o'xshatadi. Bu mash'alaga ega bo'lмаган odam esa hayot yo'llarida albatta qoqiladi, o'z o'rnini topa olmaydi degan xulosani beradi.

Shu o'rinda Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek "Odamlar hamma narsaga chidashi mumkin lekin adolatsizlikka chiday olmaydilar"¹, degan gapning zamirida katta ma'no bor. Xalq Podshoh va ayonlarga ishonsagina ularga bilan to'g'ri munosabatga kirishadi. Davlat gullab yashnashi uchun juda katta asos bo'ladi. Agarda aksi bo'lsa xalq orasida og'richilik ,qalloqlik avj olib qo'zg'olonlar ro'y berishi aniq. Ahmad Donish o'z vatanini qoloqlikdan chiqarish yo'llarini tinmay izlaydi. "Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina,-deydi Donish,-u har doim barhayotdir". Ahmad Donishning ijtimoiy g'oyalari o'z davri uchun muhim ahamiyatga ega edi. U mavjud iqtisodiy-siyosiy tuzumining taraqqiyotiga g'ov bo'lib qolganligini ko'rsatadi va bu g'oyani olib tashlash yo'llarini qidiradi.

Insof vaadolat — taxtning o'zi askar va xalq, oqar suv va xazina bu to'rt narsa taxtning to'rt oyog'i. Agar bulardan birortasi bo'lmas ekan, boshqalari ham o'z o'rinlarida qololmaydilar. Bu esa davlat taxtida o'tirgam sultanat shaxsining yuz tuban yiqilishi demakdir. Chunki xazinasiz askar yashay olmaydi xazina esa xalqdan to'planadi, xalq bo'lsa suvsiz hosil ololmaydi. Xazinasi etishmagan davlat

¹ Sh.M.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston" -2018 y 193-b.

askarni kuch bilan ishga solib, xalq molini bosib olib keltiradi, oxiri xalq ulardan nafratlanib, uning askarlari tarqala boshlaydi. Bunday hukumat oz fursatda tor mor bo'lib, undan badnomlikdan boshqa hech nishon qolmaydi. Podshohlik taxtiga o'tirgan kunidan boshlab bu mamlakatning suvi qayerdan kelib, qayerga ketishini tushunib, uni saqlash chorasini ko'rsin.¹

Podshohlar fuqarolari bilan podshoh. Agar ular xalqga hurmatsizlik qilsa, ularga ozor bersalar, unda o'z davlat podshohga dushman bo'ladi. Podshoh amaldorlari qo'rs bo'lsa ularni xalq ustiga qo'yib bo'lmaydi. Chunki xalq yolg'iz uning o'zini qarg'amasdan podshohni ham qo'shib qarg'aydi. Podshoh aqli bo'lsa, xalqini o'ylaydi.

Yurtning obodligi xazinaga bog'liq bo'lishi haqidagi fikrlarni ham aytib o'tadi. Xazina bo'lsa albatta davlatning, aholining sharoitini yaxshilash, askarilarni saltanat xizmatiga jalg qilish mumkin bo'ladi. Buni donishmand yaxshi anglab yetgan. Albatt moliyaviy ahvol yaxshi bo'lmasa saltanat yashay olmaydi. Podshoh mamlakat va xalq huqularini shu ikkala unsur orqali tartibga sola oladi. Saltanatni obodonlashtirish ko'prik, yo'l, kanal qurish mumkin bo'ladi. Demak, podshohning yordami bilan hamma xalq yer-suvga ega bo'la oladi.

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, XIX asr Buxorosining iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi ustivor ahamiyatga ega edi. Qishloq xo'jaligida esa sug'orish tarmoqlari hal qiluvchi omil edi, suv tarmoqlari va manbalari ham amir va yirik yer egalarining mulki hisoblanar edi. Dehqon uchun, suvdan foydalanish ham yer singari uni qaramlikka tushirish vositalaridan biri edi. Bu davr Buxorosida hunarmandchilik xo'jalik yuritishning muhim shakllaridan biri bo'lib, u ham dehqonchilik singari faqatgina qo'l mehnatiga asoslangan va aholini ezishning alohida bir yo'nalishi edi.

Buxoro amirligining ijtimoiy hayotida yirik yer egalari va kambag'al dehqonlar jamiyatning asosiy qatlamlari bo'lib, dehqonlar amirlik nufuzining 90 foizini tashkil etardi. Mehnatkash dehqonni nafaqat amir, balki yirik yer egalari

¹ A.Donish. "Navodir ul vaqoe" O'zbekiston SSR Fan nashriyoti 1964-y 48-b.

ham shafqatsizlik bilan ezar edi. Ahmad Donish va Sadriddin Ayniylar yashagan bu zamonda dehqonlarga solinadigan to'lov va soliqlarning qariyb 50 xili mavjud edi. Bu haqda Sadriddin Ayniy: "Dehqon davlat solig'ini to'lash uchun barcha narsasini sotgan, ba'zan uzining qizi yoki o'g'lini sotishga majbur bo'lган bunday holatlar ko'п bo'lган" ¹ – deb ta'kidlaydi.

Ahmad Donish mamlakatdagi iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanib borayotgan qoloqlikni – “davlat boshqaruvidagi hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, adolatsiz rahbarlar tomonidan davlat sohalarining ko'п qismi boshqarilayotgani, davlatni idora etuvchi shaxslarning xalq manfaatini ko'zlab emas, balki shaxsiy manfaatlarini ko'zlab amalga oshirayotgan adolatsizlik harakatlaridadir” deb ta'kidlab o'tadi. Mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy qoloqlikni faqatgina amirlik davlat tuzumini isloh qilish orqali amalga oshirish mumkinligi ham qayd etgan.

A.Donishning Kengash haqida qarashlari ham mavjud. Savodli va ma'lumotli odam kengash raisi qilib tayinlanishi kerak. Kengash a'zolari u yoki bu masalani -muhokama qilayotgan va ko'rib chiqayotganda xalq va mamlakat manfaatlarini ko'zda tutishlari kerak. Mamlakat obodonchiligi va xalq manfaatlari to'g'risidagi kengashning qarori rais tomonidan hukumdorga topshirilishi kerak. Agar u qarorni ma'qullasa, uni tasdiqlashni va hayotda amalga oshirishi kerak. Aqli odamlarning yakdilligi ishda xato bo'lishining kelib chiqishini oldini oladi. Agar kengash yig'ilishi shoh ishtirokida ochilsa, kengashning ba'zi bir a'zolari shohdan qo'rqib yoki hayiqib, u yoki bu qarorning to'g'ri yo noto'g'ri ekanligini ayta olmaydi qabul qilinayotgan qaror noto'g'ri bo'lsa ham shoh rayiga qarab ish tutadilar. Bunday holatda shox oz nuqtai nazarini qattiq turib yoqlamasa ko'pchilik kengash a'zolarining maslahatiga quloq solishi kerak.

Sulton, ko'pchilik xalqning roziligi va davlatning mashhur va obro'li kishilari bilan maslahatlashib, o'ziga ikki dono vazir tanlab olishi kerak. Ularning biri daromadlarning bilan shug'ullanishi, ikkinchisi esa davlat xarajatlari bilan shug'ullanish kerak. Ular o'zlarining mavqelari bilan boshqa barcha amaldorlardan

¹ S.Ayniy. Asarlar . T. 6- T.: Badiiy adabiyot, 1967. - 420 b

balanroq bo'lishi kerak. Bu ikkala vazir qachonki to'g'ri hisob olib borsa mamlakat siyosati to'g'ri yo'ldan boradi.

Agar xalq davlat tartiblaridan va hukumat siyosatidan norozi bo'lib g'alayon ko'tarsa, shohni na qo'shin va na xazina qutqara oladi. Agar xalq hukumdordan rozi va minatdor bo'lsa, u shuni bilsinkim, unga qarshi hech kim bosh ko'tarib chiqmaydi. Agar biror kishi bosh ko'tarsa, u mag'lub bo'ladi.

“Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergen ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalkimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan xam bizdan rozi bo'ladi”¹.

Ahmad Donish mamlakat kelinga o'xshtadi, har xil hunarmandlar esa uning zebi ziynatlaridir. Bular har qancha ko'proq bo'lsalar, mamlakat ham shunchalik ziynatlanadi. Podshohlikda tartib- intizomi haqida gapiradigan bo'lsak bular qanchalik mustahkam bo'lsa mamlakat obodonligi oshadi. Agarda bular to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, mamlakatni harob bo'ladi bu aniq.

Xazina boyligi bilan mamlakatni dushmanlardan saqlaydigan yetarlik darajada askar tayyorlash podshohning vazifasidir. Agar kerak bo'lgan vaqtda dehqonga suv etkazib berolmasa yoki karvon yo'llarini qaroqchi va o'grilardan tozalay olmasa, unda podshohning xalqdan ushur va xiroj olishi durust emas. Podshoh boshliq butun sipohlar fuqarolari yaxshi kutolmay, ularga tirikchilik buyumlarini yetkazib bera olmas ekanlar, u holda xalq ustidan olib yegan va ichganlari halol emasdir². Mamlaktning moliyaviy ahvoli qachalik yaxshi bo'lsa mamlakat har sohada rivojlanadi. Bular albatta davlatda olib borilayotgan to'g'ri siyosatda namoyon bo'ladi. O'zini har tomonlama taminlay oladigan xalqi bor davlat qudratli kuchga egadir.

¹ Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz”T.: “O'zbekiston” - 2016 17-bet

² A.Donish “Navodir ul vaqoe” O'zbekiston SSR. “Fan” nashriyoti 1964 y 47-49-betlar

XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy-siyosiy tarixi mamlakatimiz tarixining siyosiy voqealarga oziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Buxoro amirligi ham tashqi ham ichki siyosatda mustamlaka ma'murlarning nazoratida bo'lishi, aholining ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Aholining turmush sharoiti og'irlashgandan og'irlashavergan. Bu esa xalq tobelligiga olib kelgan sababalardan bo'lib hisoblanadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy-ma'rifiy hayot, mang'it amirligining olib borgan siyosatlari, rus bosqini haqida mufassal ma'lumot beruvchi ma'rifatparvar shaxs Ahmad Donish hisoblanadi. Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqega ega edi. Ahmad Donish va uning odil hukmdor xususidagi qarashlar ham o'z davrida siyosiy qarshilik va ta'qiblarga uchraganligi buning yorqin misolidir.

Ahmad Donish o'z davrining olimi, jamoat arbobi bo'lgan. Uning faoliyatini tadqiq etish natijasida XIX asrning ikkinchi yarmida buxoro amirlikda hayotida hukm surgan o'zboshimchalik, siyosiy va iqtisodiy qoloqlik sababalari va o'sh davdagi davlat boshqaruvidagi muammolar, podshohlarning kaltabin siyosati, podshohlarga foydali bo'gan masalahatlarni bitiruv malakaviy ish doirasida ko'rib chiqishga harakat qildik. Ahmad Donishning amir elchilari safida mirzolik qilib Rossiya shaharlari bo'lib qaytishi, uning jamiyat va davlat boshqaruvi iqtisodi va xo'jalik hayotini o'zgartishish kerak ekanligi xususida tegishli xulosalar chiqarganligini ko'ramiz. Ana shu safarlarning mahsuli sifatida tarixiy, falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga molik "Navodir-ul-vaqoe", "Mang'it amirlarning tarixi"(Tarjima oy ahvoli amironi Mang'itiya) kabi asarlari dunyoga keldi.

"Navodir-ul-vaqoe" asari amirlikning o'sha davrdagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotning dolzarb muammolariga bag'ishlangandir. Ushbu asarda Ahmad Donish tomonidan siyosiy go'ya va qarashlar asosida puxta ishlab chiqilgan tavsiyanomalar ham taklif etgan. Asarda odil hukmdor uning vazifa va xislatlari jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib asosli tarzda bayon etilgan. Jumladan, uning

fikricha, agar hukmdor barcha jabhalarda odilona va oqilona siyosat olib borsa, tashqi davlatlar va xalqlar bilan savdo-sotiq munosabatlarni o'rnatib yaqin siyosat olib borasa mamlakat obod xalq esa o'z navbatda farovon bo'ladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Demokratiya tamoyillarga tayanuvchi davlat hokimiysi xalq manfaatini ifoda etib, jamiyatni boshqarish hamda rivojlantirish xizmat qiluvchi bonyodkor kuch sifadida namoyon bo'ladi"¹.

Ahmad Donish mamlakatning siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi lozim bo'lgan Davlat Kengashi tashkil etish masalasiga ham alohida qayd etganligini ko'rish mumkin. Bu kengashda aholining barcha tabaqalaridan vakillar kiritib, davlat ahamiyatiga molik barcha ishlarning mazkur kengash orqali amalga amalga oshirilishi yaxshi natijalar berishi mumkinligini ham qayd etgan. Bu kabi qarashlar amirlilik boshqaruv davrida muhim siyosiy siljish uchun xizmat qilgan. Ammo bu fikrlar olim kabi siyosiy ta'qiblarga uchragan.

Buxoro amirligining hukmdorlari va ular yuritgan boshqaruv siyosati xususida Ahmad Donish mamlakatda adolatsizdik, iqtisodiy qiyinchilikni o'rganish va unga chora ko'rish yo'qligi haqida kuyinib gapirib otgan bo'lib hisoblanadi. Pohshohni xalq manfaatlari ko'zlab harakat qilishga undashga harakat qilgan. Amaldarlarning lagabardorlik va ochko'liklarni juda qattiq qoralagan. Ahmad Donishning ilmiy merosini o'ganish orqali biz juda keng ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Ahmad Donishning ilmiy me'rosi nafaqat amirlilik tarixini o'rganishda, balki XIX asr ikkinchi yarmida Buxorodgi ilm-fan rivoji, amirlilik aholisining ijtimoiy holatini o'rganuvchi jamiyatshunos va siyosatshunoslar uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishda o'rganilgan masalalar yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni tadqim etish maqsadga muvofiq:

¹ Sh.M.Mirziyoyev. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi boyicha harakatlar strategiyasi" T.: "Ma'naviyat" 2017-y 25-b.

- Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” va Nizomimulkning “Siyosatnomा” asaridagi davlat boshqaruvi masalalari xususidagi qarashlarni alohida bitiruv malakaviy tadqiqot sifatida o’rganish;
- Ahmad Donishning ilmiy merosini o’rgangan olimlar va ularning tadqiq yo’nalishlar asosida katalog tuzish;
- Ahmad Donishning ilmiy merosidagi ma’lumotlar asosida ko’rgazmali taqdimot va elektron manbalar yaratish.
- Ahmad Donishning ilmiy-huquqiy merosini ommalashtirish.

Umuman olganda Ahmad Donishning ilmiy-merosi XXI asr uchun ham dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar

1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston". 2018

II. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimov asarlari

2.1 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tapdid bararorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekiston, 1997. - 324b.

2.2 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.- 176 b.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari

3.1 Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekistin davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: "O'zbekiston"-2016

3.2 Sh.M.Mirziyoyev "Taqidiy tahlil ,qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T.: "O'zbekiston"-2017 yil 6-6.

3.3 Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston" -2018 y 72-bet.

IV. Asosiy adabiyotlar

4.1 T.E.Rahmonov, M.Z.Orziyevning "Ikki tarixiy siymo" 20-bet

4.2 Abdahalil Razzoqovning "Iqtisodiy tafaffurlar sharchashmasi" Toshkent "O'zbekiston" 2011-yil.

4.3 Afoqova.N. "Navodir ul-vaqoe"tarkibidagi she'riy matnlarga oid dastlabki kuzatishlar./Qomusiy mutafakkir, Buxoro, 2007.-B.23.

4.4 Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964.- 411b.

4.5 Ahmad Donish. История мангитской династии. Dushanbe: Дониш 1967.- 125.6

4.6 Ahmad Donish. Risola yo muxtasare az ta`rxi sultanati xonadoni mangitiya. Dushanbe, 1992. - 98 b.

4.7 Ahmad Donish. Risola dar nazmi tamadtsun va ta`ovun. -Dushanbe, 1972. 146b.

4.8 Sadriddin Ayniy "Esdaliklar". T.-5 -tom: 1965 23-b.

4.9 A. Sirojiddin "Mang'itlar davrida Buxoro amirligi iqtisodiy tarixi".

- 4.10** Ayniy zamondoshlar xotirasida: xotiralar, maqolalar, she`rlar./T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti 1978 . - 209b.
- 4.11** Xoliqov R. "Rossiya –Buxoro tarix chorrahasida".
- 4.12** Ayniy.S Asarlar . T. 6- T.: Badiiy adabiyot, 1967. - 420 b.
- 4.13** Vohidov R, Mahmudov M. Ustod S.Ayniy saboqlari.T.:Fan,2004 314 b.
- 4.14** Naim G'oyipov "Donishnoma" T.: "O'zbekiston 2008-yil
- 3.15** Mirzo Salimbek. Kashko`li Salimiylar va Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. Buxoro -2003. 343 b.
- 3.16** Husen Jo'rayev "Benazir san'at mutolaasi" T.: "Navro'z" 2014-yil
- 3.17** Rahimov N. Sadreddin Ayniy ijodiga ustozlar ta`siri. T.: O`zbekiston, 1972 . - 24. b
- 3.18.** Rahmon Muiniy. Ahmad Donish hayoti haqida Buxoro - 2007. - 38 b.
- 3.19** Rahmon Muiniy. Ahmad Donish hayoti haqida Buxoro - 2007. - 38 b.
- 3.20** Rahmonov T. Ahmad Donish davlatchilik tamoyillari. Buxoro - 2008.-80.6
- 3.21** Raupov.S "Navodir ul-vaqoe"da adolatli shoh muammosi. Qomusiy mutafakkir. Buxoro, 2007.-80b.
- 3.22** Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi. Buxoro, 2004. - 126 b.

Internet saytlari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.kitob.uz>
4. <http://www.kutubxona.uz>

AHMAD DONISH**HIKMATLARI**

dam yaratilgandan so'ng uning tunganmas baxti ilm va ma'rifatda bo'ladi. Uning ixtiyori o'zida bo'lsa, ilmsizlik va dangasalikka bo'yin egmasin, chunki ilm va ma'rifat ruhning istagi bo'lib, rohatparastlik va dangasalik nafsning tilagidir.

...Haq yo'ldan adashmaslik uchun hamma odamlar ko'nglida bir turli sezgi quvvati yaratilgandir. Mana shu orqali odamlar tuzukni buzuqdan, yaxshini yomondan ajrata oladilar.

Kimki aqlsiz bo'lsa, u odil ham emas... Aql va davlatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, aqlsiz odamlar mamlakatni idora qila olmaydi.

Podshoh hukm ustida mumkin qadar yumshoqlik bilan so'zlab, zaruratsiz holda qattiq gapirmasin. Har ishning hujjat va dalillarini tekshirib, uni eshitishdan zerikmasin. Miskin va faqir kishilar bilan o'tirib suhbatlashmoqdan nomus qilmasin...

Ma'lumki, davlat va sultanatning qurilishi uchun fuqaro jamiyati va viloyatlar tuzilishi kerakdir. Buning uchun mamlakat obodligi hamda yetarli askarning bo'lishi lozim; chunki bularsiz hech bir davlatning saqlanishi mumkin emasdir. Askarsiz shoh bo'lmaydi, xazinasiz askar yashay olmaydi. Xalq ko'payib, obodlik bo'lmasa, xazina boyligi ko'paymaydi. Mamlakat obod bo'limguncha fuqaro jamiyati bo'lmaydi.

Mamlakat kelunga o'xshaydi, har xil hunarmandlar esa uning zebi ziynatlaridir. Bular qancha ko'proq bo'lsa, mamlakat ham shunchalik ziynatlanadi.

Hukmdor hamisha oqil olimlar suhbatlariga tashna bo'lib, ularning nasihatlarini g'animat bilsin.

Davlat rahbari kimda-kimning ko'z quvvati, fahm quvvati ko'proq bo'lsa, unday odamni elchilikka tayinlasin. Qaysi odam shijoatli va g'ayratli bo'lsa, uni askar boshlig'i qilib, dushmanga qarshi urushga va qal'alarmi olishga chiqarsin. Agarda insofli va diyonatli bo'lsa qozilik, hokimlik mansablarini bersin. Agarda oliv himmatli va aqlli bo'lsalar, ularni vazir va amirlikka tayinlasin.

Bir mamlakatda tinchlik va mo'lchilik bo'lib, buning ovozasi atrofga tarqalsa, buni eshitgan savdogar, hunarmand va olimlar har tomonidan kela boshlaydi.

Xalqdan ushur va xirojlarni yig'ishga, davlatning butun moliya xizmatlarini bajarib turishga adolatli kishilardan zakotchi tayinlasin.

Barcha yo'llarni kuzatib, o'g'ri, yo'lto'sar va qaroqchilardan saqlash uchun yo'llar noziri saylab qo'yilsin.

...Dunyoda har qanday mehnat (chunonchi oddiy mehnatkash bo'lish), go'laxlik qilish nomus ish emasdir. Chunki u xizmat haqini oladi. Haqiqatga kelganda, shohgago hammasi ham xizmatchidir.

Har kim o'ziga yarasha kasb qilishi lozimdir. Masalan, amirlik talab qilgan kishi aqlli, tadbirli va saxovatli bo'lish bilan birga dovyurak, bahodir bo'lishi zarur. O'tkir tilli, ochiq so'zli, chuqur fikrli, aqli komil insonlar vazirlikka loyiqidir. Qozilik va raislikni talab etuvchilar aqlli-farosatli bo'lish bilan birga fatvo va da'vo ilmlarida oliv ma'lumotga ega bo'lishlari lozimdir.

1-ILOVA

